

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

o‘zbek tili yo‘nalishi

14.39-guruh bitiruvchisi

Mo‘tabar Imbatovanning

“O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llanilgan somatik frazeologizmlar”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,

professor SH.ISKANDAROVA

Farg‘ona – 2018

Bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2018-yil 10-maydagi -yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

E.IBRAGIMOVA

Taqrizchi

Z.QO'SHMATOVA

MUNDARIJA

KIRISH4

BIRINCHI BOB.

O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA FRAZELOGIZMLARNING IFODALANISHI

1.1. “Shaxs” semali frazeologizmlar.....10

1.2. Frazeologizmlarda harakat-holatning ifodalanishi.....17

Bob yuzasidan xulosa30

IKKINCHI BOB.

ROMANLARDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

2.1. Bosh leksemali frazeologizmlar.....31

2.2. Qo‘l leksemali frazeologizmlar.....36

2.3. Ko‘z leksemali frazeologizmlar.....41

2.4. Oyoq leksemali frazeologizmlar.....44

Bob yuzasidan xulosa48

UMUMIY XULOSA50

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI52

Kirish

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qatmak millatning ruhini yo'qatmakdur" degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Shuning uchun ham qachonki bosqinchi va istilochi kuchlar el-yurtimizni o'ziga qaram qilmoqchi bo'lsa, avvalo, uni o'z tili va dinidan, tarixi va madaniyatidan, milliy g'ururidan judo etishga uringan. O'lkamiz qaramlik changaliga tushib qolgan istibdod davrlarida ona tilimizning rivojlanish imkoniyatlari cheklab qo'yilgani barchamizga ma'lum.

O'zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keying dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'satgani haqida mavjud ilmiy manbalarda ma'lumotlar beriladi.

O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo'shigani barchamizga ma'lum. Shu borada Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilm-fan va adabiyot namoyondalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egllaganini qayd etish lozim.

O'zbek adabiy tili ayniqsa XIV-XV asrlarda – Amir Temur hamda temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asrlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tanitgan.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

Yurtimizning mustaqillikka ilk qadamlari ham til bilan bog‘liq. Chunki hali mustaqilligimiz e‘lon qilinmasdan turib, 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bunday katta yutug‘imizda, albatta, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning o‘rinlari beqiyos.

Bugungi kunda ham bunday islohotlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonlaridan jadallik bilan olib borilmoqda. Xususan, Prezidentimiz 7-iyulda Namangan viloyatiga tashrif buyurdilar. Bu yerda bir qator amaliy ishlar belgilab olindi. Shulardan biri Namangan davlat universiteti qoshida til o‘rgatish bo‘yicha maxsus maktab tashkil etilishi bo‘ldi. Bundan yurtimizda tilga bo‘lgan e‘tibor kuchli ekanligini ko‘ramiz.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yoshlar tarbiyasi, ularning ma‘nan yetuk bo‘lishi, har qanday vaziyatga nisbatan o‘zining mustaqil fikri bo‘lishi va bu vaziyatga to‘g‘ri baho bera olishi juda katta ahamiyatga ega. Yoshlar tarbiyasida tilning o‘rni beqiyosdir. Kishi qalbiga yo‘l so‘z orqali topilishi barchamizga ma‘lum. Bola tug‘ilganidan to ulg‘ayishi-yu butun hayoti davomida o‘z ona tili hamroh bo‘ladi. Onaning mehri, barcha umidlari o‘zining allasi bilan farzandi qalbiga jo bo‘ladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Namangandagi nutqida quyidagi fikrni bildirib o‘tdilar: “Gap yoshlar tarbiyasida borar ekan, bu borada shoshmaslik, yoshlar va ota-onalarning talab-istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o‘ylab ish tutish kerak”¹.

Shu yurtda yashayotgan har bir o‘g‘il-qizda ona tiliga nisbatan yuksak ehtirom tuyg‘usi bo‘lishi kerak. Zero, bu tilda ota-bobolarimiz gaplashishgan, onamizning allasi shu tilda yangragan, farzandlarimiz kulgulari shu tilda jaranglaydi. Shu o‘rinda G‘aybulla as-Salomning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Kishi boshqa tilda bilimli bo‘la oladi, ammo faqat ona tilidagina bekam-u ko‘st bo‘lishi mumkin”².

O‘zbek tilini o‘rganish va uning mavqeyini oshirishda qilinadigan ishlar hali anchaginani tashkil qiladi. Xususan kundalik muloqotda, ommaviy axborot

¹ Mirziyoyev Sh. 2017-yil 7-iyul Namangan nutqidan.

² Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Ikinchi qism . – Toshkent, 2013.

vositalarida o‘zbekona nutq madaniyatini oshirish borasida hali juda ko‘p ishlar bizni kutmoqda.

Tilga e‘tibor faqat bayram kunlarida emas, balki har kuni, har daqiqada davom etishi kerak. O‘zbek tili ona tilimiz va davlatimiz tili ekan, uning sofligi, go‘zalligi, qadr-u qimmatini uchun kurashish har bir vatandoshimizning insoniy hamda fuqarolik burchidir.

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi va hakoza³. Ma‘lumki, frazeologizm deganda, ko‘chma ma‘no anglatadigan, ibora yoki turg‘un so‘z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma‘no uning tarkibidagi so‘z komponentlariga xos leksik ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma‘nosi umumlashma ma‘no, maxraj ma‘no sifatida namoyon bo‘ladi⁴. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Frazeologizmlarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma‘no guruhlariga ko‘ra tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma‘nolarini aniqlagan. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoev, A.Rafiyev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan⁵. Bu ishlarda frazeologizm masalalari yetarlicha tahlil qilinib, so‘zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o‘rganilganligi diqqatga sazovor.

³ Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 129.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 3.

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик): Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1966. – 326 б.; Содикова М. Қисқача ўзбекча – русча фразеологик луғат. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1989. – 336 б.; Қўчқортоев И. Бадий сўз устаси (А.Қаҳҳор ҳақида). – Тошкент, 1967. – 32 б.; Рафиев А. Иборалар нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 22 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – 330б.; Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипни фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.ф.номз...дисс. – Тошкент, 1993.; Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan buyon tilshunoslik sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Tildagi barcha birliklar xalqimizning til boyligi, javohirlari hisoblanadi. Hozirgi kun talablari bilan hayotimiz mezoniga e'tibor beradigan bo'lsak, xalq tili o'zining ko'zga ko'rinmas kuchga egaligini namoyon qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz bir nutqida: - "Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jiplashtiradi"⁶, deya ta'kidlaydilar. Tilga bo'lgan bu kabi e'tiroflar sabab ham tilshunoslikning barcha sohalari bo'yicha yangi tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Jumladan, frazeologizmlar va ularning nutqiy kontekstda tutgan o'rni keng tadqiq etilmoqda. U o'z tekshirish obyektiga, tadqiq etish yo'li va usullariga ega bo'lgan fan tarmoqlari sifatida shakllanib bormoqda.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati, grammatik tuslanishi va turlanishi o'rganilgan bir paytda, frazeologizmlarning badiiy matnda qo'llanilishi bilan bog'liq ba'zi masalalar o'z yechimini kutmoqda. Birinchi navbatda, frazeologizmlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, u badiiy asarning tiliga hamda so'zlashuv nutqiga jilo beradi, uni sayqallashtiruvchi ifodaviy tasvir vositalarining badiiy asarlar tilida namoyon etadi. Badiiy asar tilidagi individual – muallif frazeologizmlarini o'rganish, ularning ma'no qirralarini aniqlash, ularni frazeologik lug'atlarga kiritish kabi masalalar tilshunoslar e'tiborida bo'lmog'i zarur. Badiiy asarlar tilining o'zi murakkab jarayon bo'lganligi uchun, badiiy asarlarda yozuvchining individual yondashuvi mavjudligi sabab turli mualliflarga oid badiiy asarlarni emas, asarlarida hayotiylik nafasi ufurib turuvchi qalami o'tkir yozuvchi O'tkir Hoshimovning badiiy asarlarida keltirilgan frazeologizmlarni tadqiq va tahlil etishni rejalashtirdik. Chunki o'zbek adabiy tili va badiiy asar tili frazeologizmlarini so'z san'atkorlari tili va uslubi doirasida o'rganish salmoqli natijalarga olib keladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish 1950 yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qo'chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli

⁶ Каримов И. Ёшларимиз – халқимизнинг ишончи ва таянчи. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 54.

tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. O'zbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Rahmatullayev qo'shgan hissasi ulkandir. Bu olim o'zbek iboralarining grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U o'zbek frazeologik birliklarini lug'aviy birlik sifatida o'rganishni boshlab berdi. Uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo'lgan "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" (1955), "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" (1966), "Nutqimiz ko'rki" (1970), "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978) kabi qator kitoblari o'zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbek frazeologiyasining o'rganish obyekti masalasi atrofida hali ham munozara bo'lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boyliklarni turli nuqtalardan yondashib o'rganishni davom ettirmoqda.

Ishning maqsad va vazifalari. Badiiy matnlarda mavjud frazeologizmlarning qo'llanishiga doir maxsus tadqiqot yaratish o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyatga egadir. O'.Hoshimov asarlarida somatik frazeologizmlarning qo'llanilishini o'rganish, "shaxs" semali frazeologizmlar, ularda harakat-holatning ifodalanishiga oid ma'lumotlarni aniqlash, ahamiyatini belgilash tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- badiiy matnda frazeologizmlarning o'rganilish darajasini aniqlash;
- badiiy asarlarda mazkur birlikning turlarini tahlil etish;
- O'.Hoshimov asarlarida qo'llanilgan frazeologizmlarni to'plab, ularning leksik-semantik xususiyatini o'rganish;
- yozuvchining badiiy asarlarida mavjud frazeologizmlarning ifodalanishi;
- tadqiqotga tortilgan asarlarda qo'llanilgan somatik frazeologizmlar,xususan, bosh, qo'l ,oyoq, ko'z leksemali farzeologizmlarni o'rganish.

Ilmiy ish metodlari. Ishda tavsiflash, qiyoslash, statistik, lisoniy tajriba metodlaridan, shuningdek, kontekstual va komponent tahlil metodlari asosida tadqiq etishga qaratildi. Bundan tashqari frazeologizmlarga oid shu kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarga ham tayanildi.

Ishning obykti va predmeti. Tadqiqotimizda obyekt sifatida O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Nur borki, soya bor” romanlari olindi va mazkur badiiy asarlardan muhim misollar yig‘ildi. O‘zbek tilida mavjud frazeologizmlar va yozuvchi tomonidan yaratilgan individual xarakterga ega yangi frazeologizmlar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat va 55 sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB

O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA FRAZELOGIZMLARNING IFODALANISHI

1.1. “Shaxs” semali frazeologizmlar.

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, materiali, asosiy qurolidir. Bizning ong-tuyg‘umizga ta’sir etib, bizni hayajonga soladigan obraz va manzaralar, lug‘aviy birliklar va gaplar yordamida tasvirlanadi. So‘z san’atkori badiiy asar tili ustida ishlar ekan, tilda turg‘unlik kasb etgan, nutqda keng iste’mol qilinadigan so‘z, forma va oborotlarni ishlatadi, o‘tkinchi, ikkinchi darajali, til taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lmagan elementlarni o‘z asarlari tiliga kiritmaslikka harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi til boyligidan fikrni eng to‘g‘ri, aniq va lo‘nda qilib ifodalaydigan vositalarni terib, saralab ishlatadi. Shu yo‘sinda u tildan foydalanishning, gapirish va yozishning o‘ziga xos mezonini, namunasini yaratadi. Yozuvchi yoki so‘zlovchi qanchalik iste’dodli, mehnatsevar bo‘lsa, bu namuna shunchalik hayotiy, jozibador bo‘lib chiqadi.

Yozuvchining tilga mana shunday munosabatda bo‘lishi, uning so‘z tanlash san’ati adabiy til va so‘zlashuv uslubi takomilida jiddiy rol o‘ynaydigan omillardan biridir. Shuning uchun yozuvchining adabiy tilni rivojlantirishdagi xizmati to‘g‘risida gapirganda, u yaratgan yangi lug‘aviy birliklar bilangina cheklanib qolmasdan, uning nutq ravonligi, sofligi va ta’sirchanligi uchun kurashi to‘g‘risida gapirish lozim.

Adabiy tilning sofligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri frazeologizmlar bo‘lib, badiiy adabiyot so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari uchun ham asosiy manba hisoblanadi.

Badiiy nutq obrazli nutq, obrazli til hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotda hayot obrazlar, manzaralar yordamida aks ettiriladi. Bizning ong – tuyg‘umizga ta’sir etib, bizni hayajonga soladigan bu obraz va manzaralar so‘zlar yordamida, so‘zlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi.

Frazeologik iboralar zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar. Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, materiali, asosiy quolidir.

Tarkibidagi mustaqil so'zlar o'z leksik ma'nosini va sintaktik aloqasini saqlagan va har bir so'zlovchi tomonidan nutq jarayonida muayyan bir tilning sintaktik qoliplari asosida yangitdan yaratilgan birliklar erkin birikma, tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi yaxlitlangan va nutqqa so'zlovchi tomonidan tayyor holda olib kiriluvchi birikmalar turg'un birikmalar hisoblanadi.

Frazeologizmlarga turli adabiyotlarda ta'rif berilgan. Xususan, Sh.Rahmatullayevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatuvchi lug'aviy birlikka frazeologizm (frazeologik birlik) deyiladi"⁷.

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantik jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi⁸.

A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da frazeologizmga shunday ta'rif beriladi: "Tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga, gapga teng, semantic jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik. Turg'un birikmalarining obrazli, ko'chma ma'noga ega turi"⁹.

⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 56

⁸ Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – Toshkent: O'TA. 2001. 3-son.-B.56.

⁹ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 56

Frazeologik birliklar eng ko‘p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qo‘llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o‘rni muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda quyidagi maqsadlarda foydalanishadi:

1) voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun: ko‘pgina frazeologik birliklar konkret, ko‘rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs-predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo‘lib keladi. Masalan: *tili uzun, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi* kabilar. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki ta’sirchan shaklga – obrazli tasavvurga ega bo‘lgan frazeologik birliklar uchun ko‘proq xarakterlidir. Ba’zan frazeologizmlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi.

Misol:– *Nima? Soatovning hozirgina mayus boqib turgan ko‘zlarida o‘t yonib ketgandek bo‘ldi* (O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”, 212-bet.);

2) turli holatlarni baholash uchun: frazeologizmlarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham badiiy asarlarda o‘zining salmoqliligi bilan ajralib turadi.

Misol: *Nima endi, boshimda ko‘tarib yurishim kerakmi hammangni* (“Ikki eshik orasi”, 328-bet). *Jon kerak bo‘lsa, tuyog‘ingni shiqillat* (“Ikki eshik orasi”, 74-bet). Birinchi va ikkinchi gaplardagi frazeologik birliklar inson holatini baholash, salbiy munosabatlarni bildirishga xizmat qiladi;

3) badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: o‘zbek tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy ma’no-mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi.

Misol:

1. *Kulganida chehrasidan nur porlab ketgandek bo‘ldi* (O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”, 30-bet).

2. *Xudoga shukur, ko‘ngli joyiga tushdi* (O‘.Hoshimov. Ko‘rsatilgan asar, 280-bet).

3. *Ensam qotib, pluglarni tekshirgan bo'ldim*(O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi", 319-bet).

4. *Zakunchining ko'zida daxshatli o't chaqnadi* (O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi", 322-bet). Yuqorida keltirilgan asar parchalarida qo'llanilgan frazeologik birliklar birinchi gapda baxtiyorlikni, ikkinchi gapda taskin topishni, tinchlanishni, uchinchi gapda hafsalasizlikni, to'rtinchi gapda g'azab kabi munosabatlarni ifodalab kelishga xizmat qilmoqda;

4) nutqda ekspressivlikni ifodalash uchun.

Misol:

1. *Daf'atan kayfi butunlay tarqab ketganini his etdi* (O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar", 64-bet).

2....*Cholim kun yozilganda burnidan tortsa yiqilgudek bo'lib qaytib keldi* ("Ikki eshik orasi", 179-bet).

3. *Bobong tushmagur ham dumini tutqazmaydi* ("Ikki eshik orasi", 117-bet).

4. *Kal boshga temir taroq degandek bu nimasi!* (Ikki eshik orasi, 362-bet).

5. *Ra'no opa bilan Shomurod tog'amning yulduzi yulduziga to'g'ri kelgan ekan* ("Ikki eshik orasi", 80-bet).

Yuqorida berilgan gaplarning tarkibidagi leksik va grammatik vositalar matnning ekspressivligini oshirishga xizmat qilmoqda. Gaplarda berilgan frazeologik birliklarning semantik strukturasiidagi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko'rsatishga vosita bo'ladi;

5) badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun: yumor va satira vositalari orasida frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazah, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari bo'ladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning so'zlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani ta'kidlash vositasi bo'lib xizmat qiladi¹⁰.

¹⁰ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: филол.ф.доктр...авреф. – Тошкент, 1993. – Б. 25.

Misol:

1. *Voy ko 'nglingga qo 'tir jomashov.Kimsan akam o 'zimgayam kerak* (“Ikki eshik orasi”, 90-bet).

2. *Ariq qazib bo 'lmasa, yer chopib bo 'lmasa...o 'zimizniyam patagimizga qurt tushib turibdi...*(“Ikki eshik orasi”, 189-bet).

3. *Bir tonnalik beton plita shunchaki o 'z og 'irligini ko 'taraolmay chokidan uzilib ketdi. Bir emas, uch qavatni bosib qoldi* (“Ikki eshik orasi”, 6-bet).

Xuddi leksema kabi frazeologizm ham shakl va mazmun tomoniga ega.Frazeologizm nomemesi ham til birligi sanalib, ongimizda frazeologizm tarkibiy qismlarining muayyan fonemalar tizimi sifatida yashaydi.Frazemaning mazmun tomoni uning sememasi bo 'lib, frazemaning boshqa til birliklari bilan munosabati orqali belgilanadi.

Frazeologik ma'no frazeologizm tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosidan kelib chiqmaydi. Frazeologik ma'no umumiy yaxlitlik xususiyatiga ega, yaxlitlik darajasi esa barcha frazeologizmlarda bir xil emas.Tarkibidagi so'zlar qanchalik mustaqilligini yo'qotsa, yaxlitlik darajasi shunchalik kuchli bo'ladi.

Frazeologizmlarning mazmuniy tuzilishida ichki shakl ma'noning differensial yoki integral komponenti sifatida amal qila olmaydi.V.P.Jukov ta'kidlaganidek, frazeologizmlarning ichki shakli frazeologik ma'noning tarkibiy qismi emas, balki tamoman mustaqil bo'lgan etimologik ma'noni tashkil etadi.

“Shaxs” semasiga ega bo'lgan frazeologik birliklar shaxs nomlari bilan chambarchas bog'lanadi. Shaxs nomlari guruhi o'zbek tili leksik qatlamining o'ziga xos keng qamrovli ma'noviy qismini tashkil etadi. ShNM(shaxs nomlari maydoni) boshqa leksik birliklardan “shaxs”umumiy semasi bilan ajratiladi, unda shaxsni nomlash bilan bir qatorda, egalarining xatti-harakatlari, fe'l-atvori xususida ham ma'lumot olinadi. Shaxs nomlari insonni turli belgilar egasi sifatida ko'rsatadi.

Shaxs maydoni birliklarning ichki tasnifi natijasida kishiga xos bo'lgan jismoniy va fiziologik xususiyatlar, emotsional-hissiy holatlar, fikrlash va dunyoqarashi, xarakteri, did-farosat, odat, bilim, xulq-atvor, vazifa, mashg'ulot,

turlicha aloqalar, vaziyat bilan bog‘liq xususiyat, borliqqa munosabat va shu kabi qator belgilar atroflicha namoyon bo‘ladi¹¹.

Shaxs semali frazeologizmlarni O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari asosida ko‘rib chiqamiz:

–*ona suti og‘zidan ketmagan: Ona suti og‘zidan ketmagan bolalar bilan jang qilib yotibman deng!* (328-bet) Ushbu “shaxs” semali frazeologizm o‘zining yosh belgisi bilan alohida ajralib turadi;

–*ishning ko‘zini biladigan: Hayronman, bunchalik ishning ko‘zini biladigan raisni qayoqdan topamiz* (350-bet). Ushbu misolada kelayotgan *ishning ko‘zini bilmoq* frazeologizmi o‘z ishini puxta bajaradigan, yaxshi biladigan shaxsni bildiradi;

–*qamchisidan qon tommoq: Qamchisidan qon tomgan rais!*(480-bet). Bu frazeologizm o‘ta qattiqqo‘l, shafqatsiz insonga ishora qiladi;

– *Qanaqa suv yuqmas bolasan?!* (513-bet) Bu misolda gap ta’sir qilmaydigan, nima bo‘lganda ham o‘z bilganidan qolmaydigan shaxs ma’nosi berilgan;

–*Qo‘sha-qo‘sha uchastkalar, o‘ftobda qatiq yalashgan urug‘ining urug‘iga navbatsiz kvartiralar, mashinalar* (476-bet). Bu misolda yaqinlik, o‘sha inson bilan qandaydir aloqasi mavjudlik ma’nosi berilgan bo‘lib, bu orqali salbiy munosabat ifodalangan;

–*Xotin-xalaj “bir qoshiq suv bilan yutguli” kelinni “qo‘shaqaringlar, qo‘chqorday o‘g‘illar bersin” deb duo qildilar*(373-bet). Bu misoldagi *bir qoshiq suv bilan yutguli* frazeologizmi shaxslarning belgisini bildirib, haddan ziyoda go‘zal, kelishgan, xushqomat ayollarga nisbatan ishlatilib, bu frazeologik birlik faqat ayollarga nisbatan qo‘llanilishiga ko‘ra ham o‘ziga xoslikka ega;

– *Cholimning jussasi kichik bo‘lsayam, yuragi otning kallasidek edi*(41-bet). Bu misoldan qo‘rqmas, mard inson ma’nosini tushunamiz.

¹¹. Исқандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш. Филол.ф.доктр...ав.реф. – Тошкент, 1999.

Ko'pgina o'zbek tili leksikasidagi frazeologizmlarda hayvon nomlari ishtirok etib, bunda ular o'z ma'nosida kelmay, ma'lum shaxslarga ishora qiladi:

– *Katta oxurdan yem yeb o'rgangan, "ministr"ning qizi bo'lsa, uyalib qolmaymizmi?* Ushbu misolda aynan hayvon nomi keltirilmagan bo'lsa ham, "oxur", "yem" leksemalari orqali hayvon ma'nosini tushunamiz, lekin iboraning tag ma'nosida hayvon emas, aksincha, "shaxs" semasi yotadi;

– *Jon kerak bo'lsa tuyog'ingni shiqillat(74).* Bu misolda ham tuyoq leksemasi orqali hayvon ma'nosini tushunamiz, lekin bu gapda ham hayvonga emas, insonga ishora mavjud. Shuningdek, bu iborada salbiy bo'yoqdorlik ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shaxs mikromaydoniga mansub frazeologik birliklar ham o'z ichida muayyan mikroguruhlarini birlashtiradi. O'zbek tilidagi insonga xos ruhiy, jismoniy, aqliy, ijtimoiy-iqtisodiy holat ifodalovchi frazemalar "shaxs" arxisemasi asosidagi mikromaydonga kiritiladi¹².

Shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy belgi asosida ma'lum umumiy sema orqali birlashgan frazeologizmlar ham tilimizda katta ahamiyatga ega. Bu frazeologizmlarni ijtimoiy hamda iqtisodiy holat asosidagi guruhlariga ajratish mumkin.

"Shaxs" semali frazeologizmlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy holat bildiruvchi frazemalar alohida ajratiladi: *boshidan oshib yotmoq, tishi o'tmaydigan, boshiga yetsa oyog'iga yetmaydi, qo'li yupqa, o'ziga to'q, bo'yni yo'g'on, boshiga ko'tarmoq, burnini yerga ishqamoq* kabi frazeologizmlar.

Frazeologizmlar semantik strukturasidagi belgilarning o'zaro zidlanishi ijtimoiy holat bildiruvchi frazeologizmlarda ham kuzatiladi. Masalan, *boshiga ko'tarmoq* frazemasidagi "hurmat" semasi "boshga ko'tarilayotgan" shaxsning ijtimoiy jihatdan yuqoriligiga ishora qiladi: *Nima endi, boshimda ko'tarib yurishim kerakmi hammangni* ("Ikki eshik orasi", 328-bet). *Holiga maymun yig'lamoq* frazemasidagi "og'ir ahvol" semasi ma'lum darajada "ijtimoiy pastlik" semasiga ishora qiladi: *Gitlarning holiga maymun yig'layapti, o'rtoq!* (316-bet).

¹² G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur tadqiqi.–Toshkent: Fan,2013.

Qo'l uchida ishlamoq frazemasida "shaxs" semasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan qaraydigan insonlarga ishora qiladi: *Qo'l uchida ishlaysiz deydi, mas'uliyatsiz odamsiz deydi*(443-bet).

Qon-qarindoshlik belgisi bilan farqlangan¹³ oilaviy ahvol ifodalovchi frazeologizmlarga *ko'ngli yarim, boshi ochiq, boshi bog'liq, bag'ri to'la, bir yostiqa bosh qo'yimoq, boshini ikkita qilmoq, boshini qovushtirmoq, oyog'ini to'rtta qilmoq, bir ko'z bilan o'stirmoq, tirnoqqa zor* kabi frazeologizmlar kiradi: *Menam tirnoqqa zor tumsa xotin emasman*(375-bet), *Bilib qo'y, sen endi boshi bog'liq qizsan*(178-bet), *Onam sho'rlik bir ko'z bilan o'stirdi, "Tanangizga o'ylang, o'g'lim, siz tengilar uch-to'rtta bolali bo'ldi, qovunning ham oldini oldin, keyini keyin, oyog'ingizni to'rtta qilib qo'yaylik"* deydi(475-bet).

1.2. Frazeologizmlarda harakat-holatning ifodalanishi.

Frazeologizmlar orqali harakat-holatning ifodalanishi o'quvchi yoki eshituvchiga oddiy so'zlardan ko'ra anchayin kuchli ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida bu harakat-holatni yorqinroq gavdalantiradi. Shaxs harakat-holatini bildiruvchi frazeologizmlar ruhiy holatni, jismoniy holatni, aqliy, nutqiy holatlarni ko'rsatib keladi.

Sh. Rahmatullayev sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub frazemalar xususida so'z yuritib, "sifatlarning lug'aviy ma'nosi tarkibida "kayfiyat", "his-hayajonning ijobiy-salbiyligi", "his-hayajonning kuchli-kuchsizligi" kabi ideografik semalar ajratiladi"¹⁴, -deb ko'rsatib o'tadi.

Bunday mikromaydonga mansub frazeologik ifodalarning shakllanishida kishi ruhiyati bilan bog'liq leksemalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, *qahr, jahl, ko'ngil, dil, asab, avzo, kayf, g'ash, hasrat, ta'b, bosh, bag'ir* kabilar vositasida ruhiy holat bilan bog'liq frazeologizmlar shakllanadi:

–*Ko'rgani ko'zim yo'q o'shani*(120-bet): nafrat ifodalangan;

–*Yuragimni yana qo'rquv bosdi*: hadik(346-bet): qo'rquv;

¹³ Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986-йил 5-сон. 47-48-бетлар.

¹⁴ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 176-bet.

- Turgan joyimda kesak bo‘lib qoldim*(355-bet):hayrat;
- Zakunchi esankirab goldi*(325-bet):dovdirash;
- To‘satdan ko‘nglimga g‘ulg‘ula tushdi*(118-bet):havotir;
- *Lekin ko‘nglim xufton bo‘ldi*(10-bet):hafalik;
- Avval yig‘ib olsin, keyin tushasiz!*- *dedi qovog‘ini solib*(319-bet): norozilik, hafalik;
- Bashor opa pinagini buzmay sabzi to‘g‘rayotganmish* (154-bet): befarqlik, xotirjamlik;
- *Alla-pallagacha dilim o‘ynab, o‘zimga kela olmadim* (176-bet):behalovatlilik;
- Nimadir deb ko‘nglini ko‘targim keladi*(144-bet): xursand qilmoq;
- O‘zimning ham jonimga tekkan edi*(366-bet): bezimoq;
- Ammo men hali es-hushimni yo‘qotmagan edim*(465-bet): gangimoq;
- Dilim o‘lgur hech yorishmaydi*(30-bet);
- *Bugun xafa bo‘lib o‘tirganini ko‘rib, to‘g‘risi yuragimga g‘ulg‘ula tushdi*(356-bet) : havotir;
- Qo‘zivoy bir zum o‘ylanib turdi-da, yuzi yorishdi*(420-bet): xursand bo‘lmoq;
- Nima deb bironing boshini aylantiryapsan*(412-bet): aldamoq;
- Oqsoqolning yuragi siqildi shekilli, yana shang‘illadi*(335-bet);
- Negadir yuragimga vahima o‘rmaladi*(51-bet):havotirlanmoq;
- Zakunchining ko‘zida dahshatli o‘t chaqnadi*(322-bet): g‘azab;
- ...dahshatdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan kichkintoy Tohir esa sovuqdan diydirab angrayib turar edi*(161-bet).

Leksema mazmuniy mundarijasining tarkibiy qismlaridan biri kategorial ma‘no, turkumlik semasi hisoblangani kabi, kategorial ma‘no frazeologik ma‘noning ham tarkibiy qismi sanaladi, Bu ma‘no frazeologizmlarning atash (denotativ) ma‘nosi ustiga qo‘yilgan, predmetlik, harakatlik (jarayonlik), belgilik singari umulashgan ma‘nolarni o‘z ichiga oladi¹⁵.

¹⁵Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

Kategorial ma'nosiga ko'ra fe'l frazeologizmlar eng ko'p tarqalgan frazeologizmlar hisoblanadi. Jumladan, *ko'rgani ko'zi bo'lmaslik* (nafratlanmoq), *ko'zi ilinmoq* (uhlamoq), *uchib bormoq* (tez bormoq), *oyog'ini qo'lga olib yugurmoq* (tez kelmoq) va boshqalar.

Misollar:

Umar akamning oldiga qanday uchib borganimni bilmayman((375-bet).

Ko'rgani ko'zim yo'q o'shani(120-bet).

Endi ko'zim ilingan ekan, o'zimning otimni eshitib, yana uyg'onib ketdim(351-bet).

Bunday frazeologizmlarda yetakchi komponent fe'l bo'lganligi sababli, frazeologizm ma'nosiga fe'lning qanday grammatik shaklda turganligi ma'lum darajada ta'sir qiladi. Xususan, ikkinchi frazeologizm tarkibidagi tayanch komponent o'zlik nisbatidagi fe'l shaklida bo'lganligi uchun frazeologizm ma'nosida ham ana shu o'zlik semasi saqlanib qolgan. Shuningdek, to'rtinchi frazeologizmning umumiy ma'nosi tayanch komponent bo'lgan yugurmoq so'zining leksik va grammatik ma'nosi bilan bog'liqdir. Chunki yugurmoq leksemasining mazmuniy mundarijasida yurish harakatining tezligi semasi mavjud. Frazeologizmning qismiga xos ana shu sema butunga ko'chirilgan. Bu frazeologizm tarkibida tobe pozitsiyada turgan oyog'ini qo'lga olmoq qismi aslida tayanch qism yugurmoq fe'li mazmuniy mundarijasidagi "tez yurmoq" semasiga zid keladi. Biroq tobe qismning komponentlari o'z ma'nolarini yo'qotib, bir butun holda yaxlitlanib, "tez" semasiga ega bo'lishi butun bilan tayanch qism o'rtasida semik uyg'unlikni hosil qilgan. Natijada bir umumiy ma'no hosil bo'lgan. *Oyog'ini qo'lga olmoq* qismi shakl va mazmun assimetriyasiga ega bo'lib, antisemiyani hosil qiladi. Shakliy jihatdan oyog'ini qo'lga olmoq birikmasi komponentlarining xususiy ma'nolari butunlik ma'nosiga, ya'ni yurish harakatining tezligi ma'nosiga zid keladi. Mantiqan o'ylab ko'rilganda, agar oyoq qo'lga olinsa, tez yurish u yoqda tursin, yurib ham bo'lmaydi. Shu sababli bu ikki komponent o'rtasida oksumoron hodisasi ham kuzatiladi.

Fe'l frazeologizmlar shaxs-son shakliga ko'ra o'zgarish nuqtayi nazaridan ikki guruhga bo'linadi: 1) shaxs-son shakli bo'yicha o'zgaradigan frazeologizmlar; 2) shaxs-son shakli bo'yicha o'zgarmaydigan frazeologizmlar. Xususan, *dunyoga kelmoq* frazeologizmi shaxs va zamonda o'zgarsa, *jon kirdi, g'ulg'ula tushdi* frazeologizmlarni faqat uchinchi shaxsda qo'llay olamiz: *To'satdan ko'nglimga g'ulg'ula tushdi* (118-bet).

O'zbek tilida fe'l frazeologizmlarning bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichlari bilan o'zgarishi masalasida Sh.Rahmatullayevning qarashlari mavjud: "Fe'l frazeologik birliklarning taxminan yarmi har ikki aspekt (ham bo'lishli aspekt, ham bo'lishsiz aspekt)da kela oladi, qolgan fe'l frazeologik birliklar esa faqat bir aspektda: yo obo'lishli yoki bo'lishsiz aspektda kela oladi"¹⁶.

B.Yo'ldoshevning ko'rsatishicha: "Tilimizda shunday frazeologik birliklar borki, faqat bo'lishli shaklda (*kovushini to'g'rilamoq, tuyog'ingni shiqillat, boshi osmonga yetdi* kabilar), ba'zilar faqat bo'lishsiz shaklda (*qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarma* kabi) qo'llanadi"¹⁷.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi fe'l frazeologizmlarni ham xuddi shunday tarzda ajratishimiz mumkin. Romandagi fe'l frazeologizmlarni shartli ravishda faqat bo'lishli shaklda kela oladigan, faqat bo'lishsiz shaklda kela oladigan va har ikkala shaklda ham o'zgara oladigan frazeologik birliklarga bo'lamiz. Masalan, *bo'yin tovlamoq* frazeologizmi "biror ishni bajarmaslik"¹⁸ ma'nosini bildirib, bu frazeologik birlik ham bo'lishli, ham bo'lishsiz shaklda kela oladi: *Nima, Husan aka mehnatdan bo'yin tovlayaptimi!* (328-bet). *Qo'l uchida ishlamoq* frazeologizmi ishni yaxshi bajarmaslik ma'nosini bildiradi. Bu frazeologizm ham har ikki shaklda kela oladi: *Qo'l uchida ishlaysiz deydi, mas'uliyatsiz odamsiz deydi* (443-bet). *O'g'zini moylamoq* pora bermoq ma'nosini bildiradi: *Bundan chiqdi, o'zidan kattalarning og'zini moylagan* (476-bet).

¹⁶Раҳматуллаев Ш. Феъл фразеологик бирликларда мавжудлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1963-йил 4-сон.

¹⁷ Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Samarqand, 2007. 41-bet.

¹⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 55.

Mushugini pisht demoq frazeologizmi ishiga aralashmoq ma'nosida qo'llanadi: *Qizig'i shundaki, hech kim mushugini pisht demagan* (476-bet). *Umid uzmoq* frazeologizmi ham bo'lishli va bo'lishsiz shaklda kela oladi: *U bolasidan umid uzolmayapti* (464-bet). *Ishning ko'zini bilmoq* frazeologizmi o'z ishiga puxta, ishini yaxshi biladigan insonlarga nisbatan ishlatilib, bu frazeologik birlik ham bo'lishsiz shaklda ham qo'llaniladi: *Ikki yilik "muddatim" bitmasdanoq "Ishning ko'zini biladigan" yosh kadr deb rayon kengashiga deputatlikka saylashdi* (475-bet). *Ko'ngli yorishmoq* frazeologizmi halovat topish, tinchlanmoq ma'nolariga teng kelib, bu frazeologizm ham har ikki shaklda qo'llaniladi: *Ko'nglim yorishdi* (336-bet).

Frazeologik birliklarning shunday turlari borki, ular bo'lishsiz fe'l shaklida bo'lib, bo'lishli shaklda qo'llay olmaymiz. Ular bo'lishli shaklga o'zgartirilsa butunlay ma'no o'zgarishi yoki kutilgan ma'no chiqmasligini kuzatamiz. Bunday frazeologik birliklarni "Ikki eshik orasi" romanida ko'rib chiqamiz:

– *burnidan ortiq gapirib bo'lmaslik* frazeologizmi gap ko'tara olmaslik, jahldor¹⁹ ma'nosiga to'g'ri keladi: *Tag'in burnidan ortiq gapirib bo'lmaydi bunga* (348-bet). Ushbu frazeologizmni boshqa o'rinlarda burnidan ortiq gapirib bo'ladi deb ayta olmaymiz. Ba'zan *burnidan ortiq gapirib bo'ladimi* shaklida qo'llashimiz mumkin, lekin bunda bo'lishsizlik ma'nosi aniq ko'zga tashlanib turadi;

– *dumini tutqazmaslik* frazeologizmi bir yerda turmaslik, doim harakatda bo'lishlik²⁰ ma'nosini bildiradi, lekin bu frazeologik birlikda salbiy bo'yoqdorlik nisbatan kuchli hisoblanadi: *Bobong tushmagur ham dumini tutqazmaydi* (117-bet). Ushbu frazeologik birlikni *dumini tutqazadi* shaklida qo'llab bo'lmaydi;

– *berdisini aytguncha urib o'ldirma* frazeologizmi gapni tinglagandan so'ng javob qaytarishlik ma'nosini beradi: *Berdisini aytguncha urib o'ldirma-da odamni!* (57-bet). Agar bu frazeologik birlikni *berdisini aytguncha urib o'ldir* deb qo'llasak, nima deyishini kutib o'tirma, o'sha odamni darrov og'ziga ur degan

¹⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 61

²⁰ Yuqoridagi asar.

ma'noni tushunamiz. Bunda frazeologik birlik o'z ahamiyatini yo'qotib, turg'un birikmadan erkin birikmaga aylanib qoladi;

– *suv yuqmas* frazeologizmi fe'l orqali belgini ifodalaydi: *Qanaqa suv yuqmas bolasan?*(513-bet) Bu frazeologik birlik gap ta'sir qilmaydigan, bezbet insonlarga nisbatan ishlatilib, uslubiy jihatdan salbiy bo'yoqdorlikka ega. Biz hech qachon gap ta'sir qiladigan, aqlli bolani *suv yuqar bola* deb aytmaymiz. Bunday frazeologik birliklarni asarda yana ko'plab uchratishimiz mumkin.

“Ikki eshik orasi” romanida faqat bo'lishli shaklda kela oladigan frazeologik birliklarni ham kuzataamiz:

– *tuyog'ini shiqillatmoq* frazeologizmini ham bo'lishsiz shaklda qo'llab bo'lmaydi: *Jon kerak bo'lsa, tuyog'ingni shiqillat* (74-bet). Ushbu frazeologik birlikni ham *tuyog'ingni shiqillatma* deya olmaymiz. Bu frazeologik birlikda ham salbiy munosabat ko'zga tashlanadi;

– *qamchisidan qon tommoq* frazeologizmi fe'l orqali belgiga ya'ni insonning harakteriga ishora qilib, o'ta qattiqqo'l shaxslarga nisbatan ishlatiladi: *Qamchinidan qom tomgan rais* (480-bet). Biz bu frazeologik birlikni ham bo'lishli shaklda qo'llay olmaymiz, ya'ni mehribon, ko'ngli bo'sh odamga nisbatan *qamchisidan qom tommagan* deb bo'lmaydi;

– *boshing toshdan bo'lsin* frazeologizmi o'zbek so'zlashuv tilida eng ko'p qo'llaniladigan frazeologik birliklardan biri hisoblanadi. Bu frazeologizmدا omon bo'lmoq, sog'-salomat yurmoq²¹ ma'nolarini ko'ramiz: *Boshing toshdan bo'lsin*(95-bet);

– *o'z kindigini o'zi kesgan* frazeologizmida ham fe'l orqali shaxsning belgisi ko'rsatilib, qaysar, o'z bilganidan qolmaydigan, o'z kuchiga tayanadigan insonga ishora qiladi. Bu frazeologik birlikni ham bo'lishsiz shaklda qo'llab bo'lmaydi: *Cholim ham o'z kindigini o'zi kesgan xilidan edi*(41-bet);

– *holiga maymunlar yig'lamoq* frazeologizmi ahvoli og'ir insonga nisbatan ishlatiladi: *Gitlarning holiga maymunlar yig'layapti, o'rtoq*(316-bet);

²¹Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 55

–*yuragi orqaga tortmoq* frazeologizmi nimadandir havotir olmoq, behalovat bo‘lmoq, qo‘rqib ketmoq ma’nolariga ega bo‘lib, bu frazeologik birlikni ham bo‘lishsiz shaklda qo‘llay olmaymiz: *Yuragim orqaga tortib ketdi*(322-bet).

Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlarning ko‘chma yoki o‘z, almashtirish erkin yoki almashtirish mumkin bo‘lmagan holatlariga ko‘ra uch turli bo‘ladi: frazeologik qo‘shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so‘z to‘g‘ri, ikkinchi so‘z esa ko‘chma ma’noda bo‘lib birikkan iboralar frazeologik qo‘shilmalar deyiladi: hordiq (to‘g‘ri ma’noda) chiqarmoq (ko‘chma ma’noda), holdan (to‘g‘ri ma’noda) toymoq (ko‘chma ma’noda), so‘zida (to‘g‘ri ma’noda) turmoq (ko‘chma ma’noda) kabi.

Tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko‘chma ma’no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko‘kka ko‘tarmoq (maqtamoq), eti suyakka yopishgan (ozg‘in), yuragi orqasiga tortmoq (qo‘rqmoq) kabi.

Tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari bilan ibora ifoda etgan ma’no o‘rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: sichqonning inini ijaraga olmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig‘ida bosmoq, oyog‘ini tirab olmoq kabi.

Bu hodisalarni O‘tkir Hoshimov asarlarida ko‘rib chiqamiz:

–frazeologik qo‘shilmalar: *Ammo men hali es hushimni yo‘qotmagan edim, onamsho‘rlik bir ko‘z bilan o‘stirdi. Ayang bechoraning ko‘zi teshildi-kutaverib, Muzaffarjon. U paapiros tutatib ko‘zimga qattiq tikild. Nima endi, boshimda ko‘tarib yurishim kerakmi hammangni!*(Ikki eshik orasi);

–fazeologik butunliklar: *Negadir yuragimga vahima o‘rmladi. Cholim ham o‘z kindigini o‘zi kesgan xilidan edi. Qo‘l uchida ishlaysiz deydi, mas‘uliyatsiz odamsiz deydi. Karnay-surnay, nog‘ora sadolari quloqni qomatga keltiradi, Berdisini aytguncha urib o‘ldirma-da odamni. ...nima uchun keying paytlarda Toshkentga bo‘zchining makkisidek qatnayotganini, mana endi tushundim. Otdan tushsayam, egardan tushmaydi, razil. Bizam suvni ko‘rmay ishton yechadigan xilidan emasmiz, tog‘a. Zakunchining ko‘zida dahshatli o‘t chaqnadi. Boshing*

toshdan bo'lsin. O'zimning ham jonimga tekkan edi. Yuragimga vahima tushdi. Zakunchi esankirab qoldi;

– frazeologik chatishmalar: *Dadamga o'xshab qo'ydek yuvosh bo'lsam, boshimda yong'oq chaqadi. Senday qizni kelin qilsa do'ppisini osmonga otsin. Oyim to'satdan to'nini teskari kiyib oldi. Katta oxurdan yem yeb o'rgangan, "ministr"ning qizi bo'lsa, uyalib qolmaymizmi. ...deb oyoq tiraydiganlar ham topiladi. Hujumga o'tishgani, nemisga sichqonning ini ming tangga bo'lib qolganini. Gorkom byurosida seni tippa-tik qilib qo'yib shunaqa gaplar aytishadiki, ilon po'st tashlaydi. Qizig'i shundaki, hech kim mushugini pisht demagan. Tanobini tortib qo'ymasa quturib ketdi bu zakunchi. "Podadan oldin chang ko'tarma, g'unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo'yibdi senga",-debdi.*

Frazeologik qo'shilma yoki butunliklar so'zlarni o'zaro biriktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin bo'lmaydi. Oyog'ini tirab turmoq yoki oyog'ini tirab turib olmoq bir ma'noni ifodalashi sababli frazeologik sinonimlar hisoblanadi, biroq ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. SHuningdek, bag'ri tosh va mehri tosh iboralari frazeologik sinonimlar bo'lib, ularga o'z ma'nosi bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'ngli bo'sh va mehri bo'sh iboralari frazeologik antonimlardir. Ba'zan frazeologizmlar shaklan to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi. Bunday hodisa frazeologik omonimiya deyiladi: javobini bermoq – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq²² kabi.

Badiiy asarlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarni mufassal o'rganganimizda, ularni xalqchil, adabiy tilga oidligi yoki individual xarakterga ega xususiyatlari bilan ham farqlab o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir. Mazkur til birliklarining qaysi adabiy tilga oid, qaysi yozuvchining individual yondashuvi asosida nutqiy jarayonda yaratilgan, buni biz Sh.Rahmatullaevning "O'zbek

²² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

tilining frazeologik lug‘ati”ga tayangan holda farqlashga harakat qildik. Bevosita solishtirishlar natijasida yozuvchining tildan foydalanish mahorati namoyon bo‘ladi.

O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” va shu kabi asarlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarni to‘plab, o‘rganganimizda o‘zgarishga uchramagan va qayta ishlangan frazemalarni ajratib tahlil etdik. Quyida ulardan bir qanchasini tahlilga tortamiz:

1. Pinakka ketmoq.

Ma‘nosi: a) uxlab qolmoq; b) o‘ylanish holatida bo‘lmoq (xayolga cho‘mmoq)²³.

Misol: *Alimardon yaproqlarning pirqirab uchishini tomosha qila – qila pinakka ketdi* (O‘.H. Bahor qaytmaydi, 468.).

2. Damini rostlamoq.

Sinonimi: nafasini rostlamoq.

Ma‘nosi: to‘xtab, nafas olmoq, tin olmoq, dam olmoq²⁴.

Misol: *Nihoyat, sekin – sekin damini rostladi, hovliga tikilgan cha bir tekis, chuqur – chuqur nafas ola boshladi.*

3. Burnini suqmoq.

Sinonimi: a) bosh suqmoq; b) burnini tiqmoq; s) tumshug‘ini tiqmoq (salbiy); d) chovlisini solmoq.

Ma‘nosi: hamma narsaga aralashmoq.

Misol: *Aytyapmanku, burnini suqmagan joyi yo‘q edi bu bolaning* (“Tushda kechgan umrlar”, 43-bet).

4. Og‘zidan bol tommoq.

Ma‘nosi: maqtamoq.

Misol: *Matematika o‘qituvchisi Hakimov katta tanaffusda og‘zidan bol tomib yaponlarni maqtabdi* (“Tushda kechgan umrlar”, 82-bet).

5. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmaslik.

²³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

²⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

Ma'nosi: nihoyat darajada beozor, mo'min.

Misol: *To'laganova qo'y og'zidan cho'p olmagan farishta* ("Tushda kechgan umrlar", 226-bet).

6. Olamdan o'tmoq.

Varianti: olamdan ketmoq.

Ma'nosi: o'lmoq.

Misol: *Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi* ("Ikki eshik orasi", 192-bet).

Yozuvchi qalamiga oid asarlarda ba'zi iboralar sinonimlari bilan almashtirilgan, ba'zan esa tarkibidagi ayrim so'zlarning tushirib, qisqartirilib ham qo'llanishlari holati uchraydi. Bu holat frazeologizmlarning ma'nosini umumlashtirish, abstraktlashtirish, kengaytirish uchun xizmat qiladi. O'.Hoshimov qahramonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi so'zlarning ma'nosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan.

1. Umri bino bo'lmoq.

Ma'nosi: tug'ilganidan beri hayotida (o'zining)²⁵.

Misol: *Bir og'iz aytmadim: "Hoy, men ham odammanku, umrim bino bo'lib, halovat ko'ramanmi, yo'qmi?" – demadim* ("Tushda kechgan umrlar", 5-bet).

2. Qulog'ini qoqib qo'liga bermoq.

Sinonimi: a) quloq-miyasini qoqib, qo'liga tutqazmoq; b) quloq-miyasini yemoq.

Ma'nosi: so'rayverib, sergapligi bilan miyasini charchatmoq, shovqini bilan bezdirmoq²⁶.

Misol: *Har kuni o'n martadan qulog'ingni qoqib qo'lingga beradigan xotining bo'lmasa, yo'lingga termulib turgan bolalaring bo'lmasa, gapni kim qo'yibdi senga!* ("Ikki eshik orasi", 8-bet).

²⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

²⁶ Yuqoridagi asar.

3. Og‘iz ko‘pirtirmoq.

Varianti: og‘zini ko‘pirtirmoq.

Ma‘nosi: ko‘p va maqtanib gapirmoq, ortiqcha maqtab yuborish²⁷.

Misol: *Hakimov og‘iz ko‘pirtirib, yaponni ulug‘lagan* (“Tushda kechgan umrlar”, 82-bet).

4. San-manga bormoq.

Sinonimi: adi-badiga bormoq.

Varianti: san-u manga bormoq, san-mangacha yetib bormoq.

Ma‘nosi: kim kim bilan janjallashuv, tortishuv darajasiga yetib bormoq²⁸.

Misol: *Bironta qo‘shni bilan san – manga bormaganmisizlar?* (“Tushda kechgan umrlar”, 35-bet).

5. Kapalagi uchmoq.

Ma‘nosi: 1) kayfi uchmoq; 2) gap eshitib hayratda qolmoq²⁹.

Misol: *Sirojiddin fizkultura institutiga kirmoqchi ekanini aytgan edi, dadasining kapalagi uchib ketdi. “Hozirgi imtihonni bolalar emas, ota-onalar topshiradi, u yerda mening hech kimim yo‘q!” deb dag‘dag‘a qildi* (“Nur borki, soya bor”).

Frazeologik ibora zamiridagi obrazni konkretlashtirish ba‘zan ma‘noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi asarlarida ba‘zi frazeologizmlarning qayta-qayta ishlatilish holatlari kuzatilsa ham, ammo ularning vazifasi jarayonni umuman boshqacha yoritish, ma‘no ko‘lamini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

1. Ko‘ngliga g‘ul-g‘ula tushmoq.

Sinonimi: tashvishga tushmoq.

Varianti: ko‘ngliga g‘ul-g‘ula solmoq; ko‘ngliga g‘ashlik tushmoq.

Ma‘nosi: biror narsadan tashvishlanmoq, behalovat bo‘lmoq³⁰.

Misol: *Qo‘limni sekin bo‘shatdim-u o‘sha zahoti ko‘nglimga yana g‘ul-g‘ula tushdi: poyezd kelib qolsachi?* (“Ikki eshik orasi”, 19-bet).

²⁷ Quyidagi asar.

²⁸ Quyidagi asar.

²⁹ Quyidagi asar.

³⁰ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

2. Dami ichiga tushmoq.

Varianti: damini yutmoq, nafasini ichiga yutmoq, damini ichiga olmoq, nafasini ichiga olmoq.

Ma'nosi: bir so'z ham ayta olmay qolmoq, hech qanday tovush chiqarmaslik³¹.

Misol: *U do'rillab maqtanayotgan edi, odamlar imo qilib meni ko'satishdi shekilli, dami ichiga tushib ketdi* ("Ikki eshik orasi", 356-bet).

3. Boshini qotirmoq.

Varianti: boshi qotdi.

Ma'nosi: miyasini charchatib yubormoq, bir ilojini topolmay qolishlik³².

Misol: *Ammo Nilufar pishiq qiz: bijir – bijir qilib boshni qotirib tashlaydi, jinnivoy!* ("Ikki eshik orasi", 10-bet).

4. Qulog'ini ding qilmoq.

Ma'nosi: diqqat bilan tinglashga tayyor bo'lmoq³³.

Misol: *Kechqurun qulog'imni ding qilib turgan edim, ko'chada qo'shni bolalar chaqirib qolishdi* ("Nur borki, soya bor", 26-bet).

5. Jahli burn(i)ning uchida turmoq.

Sinonimi: jahli tez.

Ma'nosi: arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq³⁴.

Misol: - *Voy – bo', jahlingiz burningizning uchida turadi-ya!* ("Ikki eshik orasi", 216-bet).

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi.

Shuni ham aytish kerakki, hozirgi tilimizda "qolip"ga kirib qolgan iboralar ham qachondir nutq so'zlanib turgan paytda yuzaga kelgan; til taraqqiyoti

³¹ Quyidagi asar.

³² Quyidagi asar.

³³ Quyidagi asar.

³⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

jarayonida ko‘p ishlanib, silliqdashib, takomillashib, bir butun holga kelib qolgan. Adabiyotimizda qayd etilayotganidek, frazeologiyaning muhim manbalaridan biri ham shundadir.

Frazeologizmlar kuchli obrazlikka, bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, ayrimlarida stilistik bo‘yoqdorlik sust bo‘lishi mumkin. Bunday holatda esa frazeologik variantlarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Frazeologik variantlar asos frazeologizmlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, ma’no, stilistik va sintaktik vazifalariga ko‘ra, aynan o‘xshash bo‘ladi. Ularning leksik tarkibida qisman o‘zgarish bo‘lishi mumkin. Ular asosida aynan bir obraz yotadi. Frazeologizmlarning leksik variantlanishi uch xil usulda yuz beradi:

- a) leksik almashinish;
- b) leksik tanlash;
- s) leksik qo‘shish.

Frazeologizmlarning bunday variantlanishi natijasida ma’no qirralarida ma’lum o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar ma’noning kuchayishi, bo‘yoqdorlikning oshishini ta’minlaydi.

Yozuvchi qalamiga oid asarlarda ba’zi iboralar sinonimlari bilan almashtirilgan, ba’zan esa tarkibidagi ayrim so‘zlarning tushirib, qisqartirilib ham qo‘llanishlari holati uchraydi. Bu holat frazeologizmlarning ma’nosini umumlashtirish, abstraktlashtirish, kengaytirish uchun xizmat qiladi. O‘.Hoshimov qahramonlarning bir – biriga bo‘lgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi so‘zlarning ma’nosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan.

Frazeologizmlarning bunday variantlanishi natijasida ma’no qirralarida ma’lum o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar ma’noning kuchayishi, bo‘yoqdorlikning oshishini ta’minlaydi.

Yozuvchining individual uslubini o‘rganish birinchi navbatda uning so‘z tanlash, so‘z qo‘llash yo‘sinini o‘rganish demakdir. Yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati tilning keng ma’nodagi sinonimik vositalari boyligidan qaysilarini saralashda, bu vositalarni nutq zanjirida qanday joylashtirishda namoyon bo‘ladi.

Mashhur yozuvchi O'.Hoshimov ham tildan ijodiy – individual foydalanishning ajoyib ustasi hisoblanadi. Yozuvchi o'z asarlarida frazeologik birliklardan mavhum hodisalarni aniq qilib tasvirlashda, qahramonlarining ichki dunyosini, psixik holatini so'z bilan ko'rsatib berishda mohirlik bilan foydalanadi. Voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlashda tilda mavjud imkoniyatlardan ustalik bilan foydalanib, yangi ta'sirchan frazeologizmlar ham yaratadi. Ayniqsa O'.Hoshimov asarlaridagi frazeologik birliklar xalq og'zaki so'zlashuv tiliga hamohang holda tasvirlanganligini alohida ta'kidlashimiz kerak.

Frazeologizmlarning odatdagi umumtil qo'llanishida uning shakli ham, mazmuni ham o'zgarmaydi. Lekin yozuvchilar, umuman, ijod ahli frazeologik birliklarni qo'llab, uni yangilaydilar. Shu asosda iboraning uslubiy samaradorligini, ta'sirchanlik darajasini oshiradilar. Ana shunday hollarda frazeologik birliklarning uslubiy imkoniyatlari bir necha baravar ortadi.

Bob yuzasidan xulosalar

1. Frazeologik iboralar zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun adib mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qiladi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadi.

2. "Shaxs" semasiga ega bo'lgan frazeologik birliklar shaxs nomlari bilan chambarchas bog'lanadi.

3. ShNM(shaxs nomlari maydoni) boshqa leksik birliklardan "shaxs" umumiy semasi bilan ajratiladi, unda shaxsni nomlash bilan bir qatorda, egalarining xatti-harakatlari, fe'l-atvori xususida ham ma'lumot olinadi. Shaxs nomlari insonni turli belgilar egasi sifatida ko'rsatadi.

4. Shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy belgi asosida ma'lum umumiy sema orqali birlashgan frazeologizmlar ham adib asarlarida katta ahamiyatga ega. Bu frazeologizmlarni ijtimoiy hamda iqtisodiy holat asosidagi guruhlariga ajratish mumkin.

5. Frazeologizmlar orqali harakat-holatning ifodalanishi o'quvchi yoki eshituvchiga oddiy so'zlardan ko'ra anchayin kuchli ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida bu harakat-holatni yorqinroq gavdalantiradi. Shaxs harakat-holatini bildiruvchi frazeologizmlar ruhiy holatni, jismoniy holatni, aqliy, nutqiy holatlarni ko'rsatib keladi.

IKKINCHI BOB.

ROMANLARDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

2.1. Bosh leksemali frazeologizmlar.

Frazeologizm tarkibida frazeologik ma’no hosil qilish funksiyasini bajaradigan komponent shu frazeologizmning mazmuniy markazi sanaladi. Mazmuniy markaz rolini, asosan, mustaqil so‘zlar bajarib kelishi bizga juda yaxshi ayon. Bunday markaz barcha frazeologizmlar uchun xos bo‘lib, u erkin qo‘llangan so‘z bilan mos kelishi bilan belgilanadi. Demak, frazeologizmlarda frazeologik va mazmuniy markazlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular frazeologizmning bir butunligini ta’minlovchi hodisalar hisoblanar ekan.

Frazeologizmning mazmuniy markazi deganda u uchun tayanch bo‘lgan so‘z tushuniladi. Bunday so‘z vazifasini ko‘proq somatizmlar bajaradi. A.Rafiyev frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida uning shakliy-sintagmatik asosi bo‘lgan so‘zni e’tiborga oladi.

Somatik frazema har bir millat tilida alohida o‘rin tutadigan xazina va til jozibasini namoyon etadigan eng muhim qadriyatlardan biri sanaladi. Ularda xalq turmush tarzi, ma’naviy va moddiy faoliyati, ruhiy madaniyati va e’tiqodi, tarixi va asriy tajribasi xuddi ko‘zgudek aks etadi. Unda lisoniy ma’rifat qadimiy ildizlar – so‘z, tushuncha, shakl va konstruksiyalarga qorishib ketadi. Aynan shu atama til jozibasi hamda uning qayta ishlanganlik darajasini namoyon etadi. To‘g‘rirog‘i, “belgi ichida belgi” – semiologik markaz yaxlitligini modellashtirish mazkur tushuncha mag‘zini tashkil etadi.³⁵

O‘zbek tilida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar juda ko‘plab uchraydi. Ba’zan bu somatik frazeologizmlar qatori yangidan-yangi ma’no qirralari bilan namoyon bo‘ladi: qo‘l uzatmoq – qo‘l bermoq – qo‘lga olmoq kabilar.

O‘zbek tilida bosh so‘zi vositsida shakllangan frazeologizmlar boshqa shunday birliklar kabi ma’noni kuchaytirish, so‘zlovchi fikrini tinglovchiga bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Jumladan, *boshiga tushmoq*, *bosh*

³⁵ Abdullayev D. Ayrim somatik frazemalar // Muloqot. 1997-yil 5-son.105-106-betlar.

*irg'amoq, boshida yong'oq chaqmoq, kal boshga temir taroq, boshini qotirmoq, boshiga urmoq, boshida ordona qolmoq, boshini bog'lamoq, boshini yerdan ko'tarmoq, boshi toshni yormoq, boshi aylanmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshini suqmoq*kabilar.

Bular orasida ma'lum holat, harakat, tilak, turlicha maqsadlarga qaratilgan ekspressiv ifodalar o'zaro farqlanadi. Masalan, *boshini quyi egmoq, boshi xam bo'lmoq, bosh ko'tarmoq, bosh irg'amoq* kabilar boshning ma'lum darajadagi jismoniy harakati, holati bilan bog'liq frazeologizmlar hisoblanadi: *Oqsoqol ma'qul degandek bosh irg'adi* (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" 333-b.). Ushbu gapdagi *bosh irg'amoq* frazemasi boshning harakati, holatini tasvirlash orqali insonda kechayotgan ma'lum ruhiy holatni ham ochib beradi. Masalan, boshini quyi egmoq frazeologizmi uyat - nomusdan boshini ko'tara olmaslik³⁶ holatini bildiradi.

Bosh suqmoq frazeologizmiga Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan:

1.Gavdasi tashqarida qolib, gavdasini tiqqan holda qaramoq.
Varianti:*boshini suqmoq.*

2.Kirmoq.Varianti:*boshini suqmoq, boshini tiqmoq.* Sinonimi:*burnini suqmoq.*

3.Aralashmoq. Sinonimi: *bosh qo'shmoq, burnini suqmoq.*

Misol:

"Amal tegdi hindiga – boshini suqdi yundiga", deb shuni aytadi-da! ("Ikki eshik orasi" 484-bet).

"Bosh" leksemali frazeologizmlar ma'lum ijtimoiy holatni ham ko'rsatish xususiyatiga ega. Bunday frazeologik birliklarga *boshi ochiq, boshi bog'liq* kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin: *Butun qishloqqa xabar tarqaldi: "Robiyaning boshi bog'landi"* ("Ikki eshik orasi" , 152-bet). Bu iboradan turmushga chiqqan yoki turmush qurish arafasida turgan qizni tushunamiz. Shuningdek, bu ibora qo'llanilish jihatidan ham o'ziga xoslikka ega, ya'ni *boshi*

³⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 50

bog'liq frazeologizmi faqat ayollarga nisbatan qo'llanilib, erkaklarga nisbatan bu frazeologik birlikni qo'llay olmaymiz. *Boshi ochiq va boshi bog'liq* frazeologizmlari bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarga egaligi bilan farqlanadi.

Frazeologik birliklar orqali insonning ma'lum bir tilagi, istagi ham ifodalanishi mumkin. Bosh so'zi orqali shakllangan frazeologizmlar tilak bildirish, istakni ko'rsatish uchun ham nutqimizda tez-tez ishlatilib turadi. Bunday frazeologik birliklarga misol qilib *boshing omon bo'lsin, boshing toshdan bo'lsin* kabilarni aytishimiz mumkin: *Boshing toshdan bo'lsin, bolam* ("Ikki eshik orasi" 95-bet).

Bosh leksemali frazeologik birliklar orasida o'zining salbiy bo'yoqdorlik ma'nosi bilan ajralib turuvchilari anchani tashkil qiladi. *Boshiga urmoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshini aylantirmoq, boshini qotirmoq, boshida danak chaqmoq, boshini yerga egmoq, boshi g'ovlab ketmoq* kabi frazeologizmlarni bunga misol qila olishimiz mumkin. Bunday frazeologik birliklarni "Ikki eshik orasi" romanida juda ko'plab uchratamiz:

–*boshiga urmoq: E, boshingga urasanmi fizikani!* (412-bet) . Ushbu frazeologik birlikka Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" da "kerak emas" tarzida izoh berilgan. Fikrni tinglovchiga ta'sirli yetkazish, uni so'zlovch o'z fikriga og'dirishda *boshiga urmoq* frazeologizmi o'ziga xos uslubiy vazifa o'tab kelganini ko'ramiz;

–*boshini aylantirmoq: Nima deb birovningning boshini aylantiryapsan!*(412-bet) Bu frazeologizmga "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da "esankiratmoq" izohi beriladi;

–*boshini qotirmoq* frazeologik birligi "kim kimning yoki nimadir kimningdir o'ylantirib gangitishi" izohi to'g'ri keladi. Bunda ham ma'lum ma'noda salbiy bo'yoqdorlik, so'zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabatini kuzatamiz: *Unga ayt, boshni qotirmasin* (482-bet). Bu frazeologik birlik salbiy ma'noda kelmasligi ham mumkin, qachonki, erkalatish ma'nosida

qo‘llanganda: *Ammo Nilufar pishiq qiz: biir-bijir qilib odamning boshini qotirib tashlaydi, jinnivoy* (12-bet);

–*boshi aylanmoq* frazeologik birligi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

1. Behud bo‘lmoq, muvozanatini

yo‘qotmoq(organizmning kasallangan holati, bunda go‘o hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyuladi).

2. Esankiramoq.

Har ikki ma’nolarga ham variant sifatida *boshini aylantirmoq* frazeologik birligi keltiriladi. Lekin *boshi aylanmoq* hamda *boshini aylantirmoq* frazeologik birliklarining ma’no qirralarida, bizningcha, ma’lum farqlar mavjud. *Boshi aylanmoq* frazeologik birligida *behud bo‘lmoq, muvozanatini yo‘qotmoq* dennotativ ma’no bo‘lsa, *boshini aylantirmoq* frazeologizmi *esankiramoq* ma’nosiga aynan mos keladi: *O‘zimning boshim aylanib ketyapti-yu bu ona tilini gapiradi* (400-bet).

–*boshida yong‘oq chaqmoq* frazeologik birligiga “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da *ortiq darajada qiynamoq, azoblamoq* tarzida izoh berilgan: *Dadamga o‘xshab qo‘ydek yuvosh bo‘lsam, boshimda yong‘oq chaqadi* (510-bet). Ushbu frazeologik birlikka *boshida danak chaqmoq, boshida tosh chaqmoq, miyasida danak chaqmoq* kabi frazeologizmlari variant sifatida ko‘rsatiladi;

–*boshida qolmoq* frazeologik birligi ham salbiy bo‘yoqdorlikka ega: *Umar zakunchi “tomoshang boshingda qolsin” degandek shaxt bilan davradan chiqdi-yu qayrag‘och tanasiga bog‘langan jiyrinning jilovini titroq qo‘llari bilan yechdi* (331-bet).

Bosh so‘zi ishtirok etgan shunday frazeologik birliklar borki, ular ijtimoiy xoslangan bo‘lib, bunday frazeologizmlarni faqatgina ayollar nutqida kuzatamiz yoki faqat ayol jinsiga nisbatan ishlatamiz. Bunday frazeologizmlarga misol qilib *boshida ordona qolsin, boshi bog‘lanmoq* kabilarni keltirishimiz mumkin: *Voy, to‘ylaring boshingda ordona qolsin* (509-bet). Ushbu misoldagi frazeologik birlik ayollar nutqiga xoslangan hisoblanadi. *Butun qishloqqa xabar*

tarqaldi: "Robiyaning boshi bog'landi" (152-bet). Bu misoldagi frazeologik birlik esa faqat ayollarga nisbatan ishlatilishi jihatidan o'ziga xoslikka ega.

Frazeologik birliklar juda nozik ma'no qirralariga ega til birligi hisoblanadi. Ularga birgina egalik qo'shimchasi, kelishik qo'shimchasi yoki nisbat qo'shimchalari qo'shilishi bilan ham ma'no butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Masalan, *bosh ko'tarmoq, boshini ko'tarmoq, boshida ko'tarmoq* frazeologizmlarini oladigan bo'lsak, ular ma'lum ma'noda birlashishi bilan bir qatorda, butunlay boshqa-boshqa ma'nolarni ham anglata olish xususiyatiga ega hisoblanadi. *Boshida ko'tarmoq* frazeologizmi Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da *yuksak darjada izzat-hurmat qilmoq*³⁷ tarzida izohlanadi: *Nima endi, boshimda ko'tarib yurishim kerakmi hammangni* (328-bet). Ushbu frazeologik birlik *boshiga ko'tarmoq* frazeologizmi bilan kelishik qo'shimchalari jihati(chiqish hamda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi)dangina farqlanadi. Ammo bu iboralarni birlashtirib turuvchi ma'nolaridan tashqari, butunlay boshqa-boshqa ma'no anglatish xususiyati ham mavjud. Boshiga ko'tarmoq frazeologizmi ham xuddi *boshida ko'tarmoq* frazeologizmi kabi *yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq* ma'nosiga ega. Shuningdek, boshiga ko'tarmoq frazeologik birligining quyidagi ma'nolari ham mavjud:

1.Qattiq shovqin qilmoq.

2.Maqtamoq.

Bosh qashimoq frazeologizmida tig'iz vaqtga aloqadorlik aks etadi, *boshi oqqan tomonga* frazeologizmida esa o'rin, joyga bog'liq harakat, to'g'ri kelgan tomonga yo'nalish haqidagi holat ko'rsatiladi. *Bosh suqmoq, bosh urmoq, bosh tortmoq* frazeologizmlarining ma'nolari ham turlicha: birinchisida aralashish, ikkinchisida bo'ysunish, uchinchisida esa inkor etish holatlari ifoda qilinadi.

Boshiga bitgan, boshida danak chaqmoq, bosh og'rig'i kabi frazeologizmlar ko'pincha biror-bir noo'rin harakatga nisbatan qo'llaniladi.

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 58.

Bosh leksemali frazeologizmlar ichida shaxslarning belgisini ifodalovchilarini ham uchratamiz: *Duma o'zi kalta bo'lsayam, boshi toshni yoradi*(68-bet).

2.2. Qo'l leksemali frazeologizmlar.

Frazeologizmlar har bir tildagi badiiy ma'no ifodalashning samarali vositalaridan biridir. Bir so'z ma'nosiga teng bo'lgan ma'no ostida birlashgan so'zlar birikmasi bo'lmish frazeologizmlar ma'lum bir xalq tilida o'sha xalqning urf-odatlarini, qarashlarini, e'tiqodini ma'lum darajada namoyon bo'ladi.

Avval ham aytib o'tganimizdek, o'zbek tilida insonning tana a'zolari bilan bog'liq iboralar ko'plab uchraydi. Ba'zan bu somatik iboralar qatori yangidan-yangi ma'no qirralari bilan namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib *qo'l uzatmoq, qo'l bermoq, qo'lga olmoq* kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Tilimizda faol qo'llanuvchi qo'l uzatmoq somatik iborasining ma'no tarmog'i matnda kengayib, madad berish, ko'maklashish ma'nolarini ham ifodalashga xizmat qiladi. *Qo'l bermoq* somatik iborasida esa tarixiy tushuncha kuchli bo'lib, e'tiqod – pir tutinmoq tasavvurini ham beradi. Uchinchi frazeologik birlikda bo'ysundirish, itoatga keltirish ma'nosi ustun hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur somatik frazemalar, birinchidan sodda va yig'iqligi, ikkinchidan, aniqligi, uchinchidan, qulayligi va mantiqiyiligi bilan e'tiborni o'ziga jalb qiladi.

Qo'l leksemali frazeologizmlar ham "Ikki eshik orasi" asarida ko'plab qo'llangan va ular o'ziga xos uslubiy vazifalarni bajarib kelgan.

Qo'lga olmoq frazeologizmi ma'lum bir shaxsni tutmoq ma'nosini ifodalaydi. Bu ibora boshiga o'z so'zini qo'ysak, butunlay ma'no o'zgaradi. Bu holatda endi ma'lum og'ir vaziyatda esankirab qolmadi, muvozanatni saqladi degan ma'no kelib chiqadi: *Lekin darrov o'zini qo'lga oldi* (328-bet).

Qo'lga tushmoq frazeologizmiga Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan:

1. Tutqun bo'lmoq.
2. Biror nojo'ya ish bilan tutilmoq.
3. Aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'yimoq.

Ushbu ma'nolarning har biri o'ziga xos bo'lib, bu ma'no qirralarini nutq vaziyatidan kelib chiqib farqlashimiz mumkin. Misol: *Bo'ldi, qo'lga tushdik* (343-bet). Asarni o'qiganimizda, maktabda o'qiyotgan Muzaffar do'sti Abduvali bilan darsga kirmasdan, maktab orqa hovlisidagi yong'òqdan meva o'g'irlashga borganini bilamiz (albatta, Abduvalining qistovi bilan). Xuddi shu vaziyatda Muzaffarni ko'rgani uning onasi Ra'no kelib qoladi va Muzaffar ayb ustida turganini anglab, do'sti Abduvaliga qarata mana shu iborani qo'llaydi. Bu holat frazeologizmning ikkinchi ma'nosiga aynan mos tushganini ko'ramiz.

Frazeologizmlar shaxslarning xarakteri, ularning kayfiyati, ruhiyatini ham ochib berishini avval ham aytib o'tgan edik. Masalan, *qo'l uchida ishlaydigan, qo'li ochiq, qo'li kalta, qo'li uzun, qo'li egri* kabilar insonga, shaxsga xos belgilarni ifodalaydi: *Qo'l uchida ishlaysiz deydi, mas'uliyatsiz odamsiz deydi* ("Ikki eshik orasi" 443-bet). Bu frazeologik birlik orqali o'z ishini chin dildan bajarmaydigan, ishiga mas'uliyatsizlik bilan yondashadigan shaxslarni tushunamiz.

Qo'li kalta hamda *qo'li uzun* frazeologizmlari shaxslarning ijtimoiy holatiga ko'ra, ya'ni moddiy jihatdan o'ziga to'qlik va kam ta'minlanganligi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Frazeologizmlarni salbiy yoki ijobiy bo'yoqdorligiga ko'ra ham ajratishimiz mumkin. Masalan, *qo'l* so'zi ishtirok etgan frazeologik birliklardan *qo'l uchida ishlamoq* hamda *qo'li ochiq* frazeologizmlarini o'zaro qiyoslasak, birinchi frazeologizm o'zining salbiy ma'no ottenkasi bilan ikkinchi frazeologizmdan ajralib turadi. *Qo'li ochiq* frazeologizmiga Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da *sahiy* deya izoh beriladi. Bunda ijobiy ma'no berilgan.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon o'ngida aniq va to'la tasvirlashda frazeologik iboralarning o'rni va ahmiyati beqiyosdir. Frazeologizmlar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizmlarni tashkil etuvchilarga ko'ra qo'shma so'zlar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Ko'proq

ular qo'shma so'zlar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Frazеologik birliklar qo'shma so'z, so'z birikmasi, gapga o'xshashligiga misollar keltiramiz:

Ayachasi uni doktor qilguncha oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurgan-ku, axir. ("Ikki eshik orasi" 347-bet). Ushbu misolda ko'ramizki, frazeologik birlik shakl jihatidan gapga teng kelmoqda.

To'g'ri, men qo'l qo'yganman ("Ikki eshik orasi" 330-bet). Ushbu gapda esa, frazeologik birlik shakl jihatdan so'z birikmasiga teng kelgan.

Qo'lim uzilib ketdi-ku! ("Ikki eshik orasi" 367-bet). Bu gapda frazeologik birlik qo'shma so'zga teng kelgan.

Yuqoridagi barcha misollardan ko'ramizki, frazeologik birliklar qo'shma so'zlarga ham, so'z birikmasiga ham, gapga ham teng kela olar ekan. Lekin frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega ekanligi, ma'no jihatdan bir so'zga teng kela olishi bilan ulardan keskin farq qiladi.

Bittadan ortiq ma'noni anglata olish (polisemiya) til birliklariga xos xususiyat bo'lib, iboralarning ham anchagina qismida uchraydi. Bunday xususiyat, ya'ni ko'p ma'nolilik *qo'l* leksemali frazeologik birliklarda ham anchaginani tashkil qiladi. Masalan, *qo'lga olmoq* iborasining "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da to'rt ma'nosi keltirilgan:

- 1.O'z ixtiyoriga o'tkazmoq. Varianti: o'z qo'lga olmoq; qo'lga olmoq.
- 2.Qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq. Varianti: qo'lga olinmoq.
- 3.Hibs qilmoq, qamash maqsadida tutmoq (rasmiy).
- 4.Biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq³⁸.

Ushbu frazeologizmning ma'no qirralarini "Nur borki, soya bor" romanidagi misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Uning gap ohangida: "Qo'limdan kelsa bu bolani chiqarib yuborib, sizga palatani bo'shatib berardim-u, ilojim qancha", degan ma'no bor edi.

Shuning uchun Sherzod beparvolik bilan qo'l siltadi: "Qo'lga olinmasam bo'ldimi?"

³⁸ Ko'rsatilgan asar, 297-bet.

Yuqoridagi har ikki misolda ham *qo'lg'a olmoq* frazeologizmi qo'llanilgan bo'lib, ushbu iboralar o'zaro polisemiya hisoblanadi.

Frazeologik polisemiya ham, huddi leksik polisemiya bo'lganidek, bosh ma'no va yasama ma'no (hosila ma'no) farq qilinadi. Leksik polisemiya bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiya, bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi³⁹.

Frazeologik birliklarda ham sinonimiya hodisasi uchraydi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Har bir sinonim shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q⁴⁰.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jonini hovuchlab* va *yuragini hovuchlab* – sinonim iboralar hisoblanadi: birinchi leksik komponenti boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa aynan bir so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim.

³⁹Ko'rsatilgan asar, 6-bet.

⁴⁰ Ko'rsatilgan asar, 7-bet.

Qo'l leksemali frazeologik birliklarda ham sinonimlik hodisasini uchratamiz. Masalan, *qo'lga olmoq* iborasining *hibsga olmoq*, *qamash* ma'nosi bilan *qo'lga tushmoq* iborasi o'zaro sinonim hisoblanadi: *Shuning uchun Sherzod beparvolik bilan qo'l siltadi: "Qo'lga olinmasam bo'ldimi?"* ("Nur borki, soya bor" 124-bet). *Bo'ldi! Qo'lga tushdik!* ("Ikki eshik orasi" 343-bet).

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, "ta'zirini yemoq" iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, "bir yostiqa bosh qo'ymoq" iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, "esiga tushmoq" iborasi qatnashadigan uya to'rt sinonimdan iborat.

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar **antonim iboralar (frazologik antonim)** hisoblanadi. Masalan, *oq ko'ngil – ichi qora; ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi.*

Antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, ko'p ma'nolilik hodisasida bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Qo'l leksemali frazeologizmlarga misol qilib *qo'li uzun* hamda *qo'li kaltalarni* olishimiz mumkin.

Iboralar orasida tarkibidagi hamma so'zlar boshqa-boshqa so'zlardan tashkil topgan bo'lsa antonimlik hodisasini belgilash oson bo'ladi. Masalan, **savol bermoq – javob qaytarmoq**. Lekin nutqimizda birinchi komponenti ayni bir so'zning o'zi, qolgan komponenti antonim bo'lgan iboralar ham bor.

2.3. Ko'z leksemali frazeologizmlar.

Odam tana a'zolaridan, ayniqsa, ko'z leksemali iboralar lug'atlarda salmoqli o'rinni egallaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL)da "ko'z" leksemali

iboralarning 80dan ortig‘i keltirib o‘tilgan. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (O‘TIFL) da 158 ta shunday ibora mavjudligi qayd etilgan [O‘TIFL, 132-151-betlar]. Agar biz bu lug‘atlarda keltirilgan “ko‘z” so‘zi ishtirokidagi iboralarning barcha variantdoshlarini ham inobatga oladigan bo‘lsak, ularning umumiy soni 190 dan ortadi. A.Isayev “O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli tadqiqotida “ko‘z” komponentli iboralar tilimizda 127 tani tashkil etishini qayd qilib o‘tadi. Uning ta’kidlashicha, “ko‘z” komponentli iboralar mahsuldorligi jihatdan rus tilida ikkinchi o‘rinni, turkman tilida beshinchi o‘rinni, latish tilida ikkinchi, ingliz va nemis tillarida uchinchi o‘rinni egallaydi.

Oldin ham aytib o‘tganimizdek, o‘zbek tilida ko‘z leksemali frazeologizmlar ko‘plab uchraydi: *ko‘ziga qon to‘lmoq, ko‘z ko‘zga tushmoq, ko‘ziga qattiq tikilmoq, ko‘zi uchib turmoq, ko‘zga ko‘rinib qolmoq, ko‘rgani ko‘zi bo‘lmaslik, bir ko‘z bilan o‘stirmoq, ko‘z oldi qorong‘ulashib ketmoq, ko‘zini shamg‘alat qilmoq, ko‘zi ilinmoq, ishning ko‘zini bilmoq, kutaverib ko‘zi teshilmoq, ko‘z uzmaslik, ko‘zi tegmoq, ko‘zi chaqnab ketmoq, ko‘zi moshdek ochilmoq, ko‘zini yog‘ bosmoq, ko‘zini suzmoq, ko‘zini olaytirmoq, ko‘zi tushmoq, ko‘z o‘ngiga kelmoq, olam ko‘ziga tor ko‘rinib ketmoq* singari. Bu frazeologizmlar, bir tomondan, inson ruhiy holatini ko‘z harakati orqali ifodalashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ma’lum vaziyatlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Masalan, *ko‘ziga qon to‘lmoq, ko‘zi ola-kula bo‘lmoq, ko‘zining paxtasi chiqmoq, ko‘zi qinidan chiqmoq* frazeologizmlari g‘azablanish yoki qo‘rqish ma’nolarini bildiradi. Bu frazeologizmlarda umumiy, integral semalar bilan birga, o‘ziga xos differensial semalar ham mavjud. Keyingi birliklardagi “qo‘rqish” semasi *ko‘ziga qon to‘lmoq* frazeologizmida kuzatilmaydi.

Ko‘zga ko‘rinmoq iborasi “*tanilmoq*” hamda “*o‘ziga diqqat-e’tiborni jalb qiladigan bo‘lmoq*”⁴¹ kabi ma’nolarga ega hisoblanadi: *Uch oy ichida ko‘zga ko‘rinib qoldi: polvon bola* (“Ikki eshik orasi”, 362-bet). Ushbu misolda frazeologik birlikning *o‘ziga diqqat-e’tiborni jalb qiladigan bo‘lmoq* ma’nosi berilgan. Berilgan gapda “harakat”, “o‘smoq”, “ulg‘aymoq” semalari kuzatiladi.

⁴¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 134.

Ko'zi ilinmoq frazemasini “mizg'imoq”⁴² ma'nosini bildirib keladi: *Endi ko'zim ilingan ekan, o'zimning otimni eshitib, yana uyg'onib ketdim*(“Ikki eshik orasi”, 351-bet). Berilgan ushbu frazeologizm harakatni emas, aksincha holatni bildirib kelmoqda. Bunda ma'noni kuchaytirish, fikrni ta'sirli ifodalash holatini kuzatamiz. *Ko'zi ilinmoq* iborasiga *pinakka ketmoq* frazemasini sinonim hisoblanadi.

Ko'ziga cho'p tiqmoq va *ko'z bo'yamoq* frazeologizmlarida ham ma'lum umumiy holatlar ko'rinadi, ulardagi “chalg'itish”, “yolg'onchilik” semalari bilan bir qatorda, *ko'ziga cho'p tiqmoq* frazeologizmidagi “laqillatish”, *ko'z bo'yamoq* frazeologizmidagi “yashirish” semalari o'zaro farqlanadi.

Ko'zi moshdek ochilmoq, *ko'zini yog' bosmoq* frazeologizmlari tarkibidagi “holat” semasi integral bo'lgani holda, ularni o'zaro zidlik munosabatidagi frazeologizmlar sifatida ko'rsatish mumkin. Birinchi frazeologizm *ko'zi moshdek ochildi*, ya'ni biror narsaning ta'siri oqibatida nimadandir xabardor bo'lish nazarda tutiladi. Ikkinchi *ko'zini yog' bosdi* frazeologizmida esa hech nimaga e'tibor qaratmaslik, manmanlik holatlari ifodalanadi. Ularni o'zaro farqlovchi sema “aniqlik” va “noaniqlik”, “xabardorlik” va “e'tiborizlik” semalari sanaladi.

Ko'z uzmay frazemasini “muttasil qaramoq”⁴³ ma'nosini bildiradi. *Ko'zini uzmay* frazeologik birligi ma'nolari tarkibida “tikilish”, “davomiylik”, “qiziqish”, “zavqlanish” singari semalar mavjud bo'lib, ushbu frazeologizmidagi o'ziga xos belgilar ana shu semalar bilan kuzatiladi: *Traktorni yaqin olib borsam, zakunchi dalada chumolidek o'rmalab yurgan sherikchilik ishqibozlaridan ko'z uzmay, qayrag'ochga suyangancha papiros tutatib turibdi* (“Ikki eshik orasi”, 319-bet).

Ko'zi uchib turmoq hamda *ko'rgani ko'zi bo'lmaslik* frazeologik birliklari o'zaro integral belgilarga ega. Har ikkalasi ham salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lib, ularni “xohishi bo'lmaslik”, “nafrat”, “yoqtirmaslik” kabi semalar birlashtiradi. Ikkinchi frazemada birinchisiga nisbatan salbiy bo'yoqdorlik kuchli hisoblanadi: *Nasibaning shu o'gayvachchaga ko'zi uchib turgan ekanda* (446-bet).

⁴² Quyidagi asar.

⁴³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 134.

Ko'rgani ko'zim yo'q o'shani(120-bet). Bundan ko'ramizki, somatik frazeologizmda inson ruhiy holati, uning o'ziga va shuningdek boshqalarga munosabati namoyon bo'ladi.

Ko'z leksemali frazeologizmlarning ba'zilar shaxsga ishora qilib, uning ijtimoiy mavqeyi, o'ziga xos xarakteri, psixologiyasi haqida ham ma'lumot berishi mumkin. Masalan, ishning ko'zini biladigan iborasi o'z ishini puxta bajaradigan inson tushunilib, bu frazema ostida "aqli", "uddaburon", epchil" semalari yotadi: Hayronman, bunchalik ishning ko'zini biladigan raisni qayoqdan topamiz (350).

Avval ham aytib o'tganimizdek, frazeologizmlar shaxsning ijtimoiy holatiga ishora qilib, uning turli sharoitlarini ko'rsatib beradi. Masalan, *bir ko'z bilan o'stirmoq* iborasi zamirida "yolg'iz" semasini tushunamiz: *Onam sho'rlik bir ko'z bilan o'stirdi (487-bet).*

Somatik frazeologizmlar harakat-holatning qay tarzda bajarilishini ko'rsatib beradi. Ba'zi ko'z leksemali frazeologizmlarda shaxsning ichki kechinmalari namoyon bo'ladi, masalan, g'azab, mehr, erkalash, aldov kabilar: *Zakunchining ko'ida dahshatli o't chaqnadi. Xotinning ko'zlari chaq nab ketdi. Nasibaning shu o'gayvachchaga ko'zi uchib turgan ekanda. Ko'rgani ko'zim yo'q o'shani.*

Ko'zini shamg'alat qilmoq frazeologizmi "aldamoq", "yolg'on ishlatmoq", "chalg'itmoq" semalariga ega hisoblanib, salbiy ma'no ottenkasi ko'zga tashlanadi: *Keyin Kimsan akam ikkalamiz hammalarining ko'zini shamg'alat qilib, shaharga borib, suratga tushib kelardik ("Ikki eshik orasi", 152-bet).*

2.4. Oyoq leksemali frazeologizmlar.

Oyoq leksemali frazeologizmlar O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor" romanlarida ko'plab qo'llangan. Quyida ushbu frazeologik birliklar tavsifiga to'xtalamiz.

Frazeologiya xalqlarning jonli va ajoyib urf-odatlarini, ananalari va ertaklaridan namunalar jamlangan rasmlar ko'rgazmasiga o'xshaydi. Frazeologiya lug'atlarning nafaqat eng rang-barang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan "jonli" nutq vositasida boyiydi.

Frazemada ikki va undan ortiq leksema o‘z leksik ma’no mustaqiligini yo‘qotgan holda bir umumiy ma’no markaziga bo‘ysunadi, frazmadan yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma’nolarning oddiy (arifmetik) yig‘indisi bo‘lmay, umumlashma, ustama ma’no, ayni vaqtda ko‘chma ma’no sifatida gavdalanadi⁴⁴.

Leksemalarda bo‘lganidek, frazeologik birliklarning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi:

- 1) lug‘aviy ma’no, aniqrog‘i – frazeologik ma’no;
- 2) baho semasi.

Frazeologik birlikning voqelikka nisbat beriladigan lug‘aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalishi) frazeologik ma’no deyilishi barchamizga juda yaxshi ma’lum.

Oyog‘iga yiqilmoq frazeologizmiga “hokisor bo‘lmoq, hokisorlik qilmoq” tarzida ta’rif beriladi. Ushbu frazeologizm harakat-holatni ifodalab kelib, kimdandir nimanidir o‘tinib so‘rash ma’nosi tushuniladi: *Zuhra kelin kalovlanib o‘rnidan turdi. Yaqin kelib oqsoqolning oyog‘iga yiqildi* (“Ikki eshik orasi” 306-bet).

Piyoda yuraverib oyog‘imda oyoq qolmadi (“Nur borki, soya bor” 310-bet). Ushbu misoldagi oyog‘ida oyoq qolmaslik iborasi haddan tashqari ko‘p yurganidan og‘ir charchashlik holatini bildiradi.

Ba’zi frazeologik birliklar harakatni birdaniga, to‘satdan sodir bo‘lishini bildiradi: *Negayam chiqib qoldi oyog‘im ostidan* (“Nur borki, soya bor” 268-bet).

Oyoqqa turmoq iborasiga Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” da quyidagicha izoh beriladi: *tuzalmoq, o‘zini tiklamoq*⁴⁵: *Shukur, mana, oyoqqa turib ketibsiz-ku* (“Nur borki, soya bor” 255-bet).

Oyoqqa turmoq iborasi ko‘p ma’noli frazeologik birlik bo‘ib, u oyoqqa turmoq, tuzalmoq hamda o‘zini tiklamoq ma’nolarini anglatadi: *Nima bo‘lganda ham bu odam kolxozni oyoqqa turg‘azgani rost-ku* (“Nur borki, soya bor” 193-

⁴⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.. – Б. 198.

⁴⁵ Yuqoridagi asar.

bet). Ushbu misolda tuzalmoq emas, aksincha, o'zini tiklamoq ma'nosi kelayotganligini ko'ramiz.

Oyoq leksemali iboralarning ba'zi ko'rinishlarida insonning ichki holati, ruhiyati ham aks etishi mumkin. Masalan, bunday iboralarga *oyog'i tortmaslik*, *oyog'ini tirab turib olmoq* kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. *Oyog'i tortmaslik* iborasiga "kimningdir qayergadir borishiga ichki bir tuyg'usining qarshi turayotganini his qilmoq" tarzida ta'rif beriladi: *Negadir Qo'qonga borishga oyog'im tortmas edi* ("Ikki eshik orasi" 433-*bet*). Ushbu misolda ham insonning ruhiy holati tasvirlanganini bilish qiyin emas. Bunda inson ichki bir his bilan qayergadir borishni xohlamasligini tushunamiz. *Oyog'ini tirab turib olmoq* iborasi esa "o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq" tarzida izohlanadi. Bu iborada ham insonning ruhiyati bilan bog'liq ma'noni tushunamiz.

Variantlanish – barcha til birliklariga, shu jumladan frazeologik birlikka ham mansub hodisa. Ko'p variantli iboralarning asosiy qismini ikki va uch varintli iboralar tashkil qiladi. Umuman, frazeologik birliklarda variantlanish boshqa til birliklaridagiga nisbatan kuchli bo'lib, bir ibora variantlarining soni o'ntagacha yetadi. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos boshqa obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda ibora yo'q bo'ladi, yoki boshqa ibora barpo qilinadi. Ibora tarkibini grammatik o'zgartirish bilan hosil bo'ladigan variantga grammatik variant deyiladi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik variantlanishda bo'lganidek, asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tashlash yoki unga qo'shish bilan voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa so'z komponentlarining joylashish tartibi asosida yuzaga keladiga variantlanish ham bor:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan: *o'tirgani joy topolmaslik; qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq*.

2.Qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: *holdan toymoq va holdan toydirmoq; ko'ngli bo'shadi va ko'ngli bo'shashdi.*

3.Tashlash asosida paydo bo'ladigan variantlanish: *ko'zi ilindi – ko'z ilindi.*

4.Tartib o'zgarirish asosida: *bog'dan kelsa tog'dan kelmoq, tog'dan kelsa, bog'dan kelmoq.*

Ko'rinib turibdiki, variantlarni sinonimlardan farqlovchi belgi sifatida quyidagilar sanaladi:

- 1.Ayni bir tushunchaga teng kelish.
- 2.Emotsionallik darajasida teng kelish.
- 3.Funksional stillarda ishatilishi bir xil bo'lish.
- 4.Istagan kontekstda biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi.
- 5.Kamida bir komponentni ayni bir so'z bo'lishi.

Majburiy bo'lmagan ammo variantlarni topib olishda yordam beradigan belgilar deb quyidagilar sanalgan:

- 1.Bir iboraning informatsiyasi natijasida tug'ulish va qisman boshqa-boshqa iboralarning to'liq tenglashuvi hamda o'xshab ketuvi natijasida tug'ulish.
- 2.Bir xil grammatik qurilishli bo'lishi.
- 3.Ayni bir yoki yaqin obrazning mavjudligi.
- 4.Izohlanish darajasining bir xilligi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda *oyog'ini tirab turib olmoq* frazeologizmiga *oyog'ini tirab turmoq, oyog'ini tirab olmoq, oyog'ini yerga tiramoq, ikki oyog'ini tirab olmoq, oyoq tiramoq, oyoqni tiramoq* kabi iboralarni variant deb hisoblashimiz mumkin.

Shuningdek, oyoq leksemali iboralar orasida shaxsning ijtimoiy holatini ko'rsatuvchilari ham mavjud: *“Tanangizga o‘ylang, o‘g‘lim, siz tengilar uchto‘rtta bolali bo‘ldi, qovunning ham oldini oldin, keyini keyin, oyog‘ingizni to‘tta qilib qo‘yaylik* (“Ikki eshik orasi” 475-bet). Ushbu misoldagi *oyog‘ini to‘rtta qilib qo‘ymoq* frazeologizmi shaxsning ijtimoiy holatini ko'rsatib, u oilali shaxsga ishora qiladi.

Oyog‘ini yerga tegizmay iborasini ko‘p ma’noli iboralar tarkibiga qo‘shishimiz mumkin: *Tamom, Ismoil melisaga xabar qilaman, hoziroq oyog‘ini yerga tegizmay rayonga olib ketadi* (“Ikki eshik orasi” 272-bet). *Birovni bir ko‘tar-ko‘tar qilsak, oyog‘ini yerga tegizmay qo‘yamiz* (“Nur borki, soya bor” 195-bet). Ushbu har ikki misolda ham ko‘ramizki, *oyog‘ini yerga tegizmay* frazeologik birligi qatnashgan. Bu iboralar o‘z ma‘no qirralariga ko‘ra farqlanadi. Birinchi misolda harakatning bajarilish holati ko‘rsatilib, bunda “tez” semasi ko‘zga tashlanadi. Ikkinchi misolda esa bu ibora kimnidir ortiqcha xurmat qilib, uni har qanday salbiy harakatlari ko‘zga ko‘rinmay qolishi tasvirlangan.

Frazema mazmun jihatining voqelikka munosabat bildirish belgisiga baho semasi deyiladi. Baho semasi leksemalarning ko‘pida betaraf bo‘ladi, yaqqol ifodalanib turmaydi; ba‘zan esa baho semasi leksemani turlicha ma‘no munosabatiga kiritish, turlicha qo‘llash bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko‘pida esa baho semasi uning mazmun jihatida doimiy tarkibiy qism bo‘lib qatnashadi, ba‘zan frazemaning lug‘aviy ma‘nosini butunlay qamrab oladi⁴⁶.

Demak, *oyoq* leksemali frazeologizmlar ham ma‘lum voqelikni nomlash bilan bir qatorda, mana shu voqelikka bo‘lgan munosabatni ham ko‘rsata oladi, ya‘ni unga baho beradi. Masalan, *oyog‘i tortmaslik* iborasi qandaydir ish-harakatning bajarilishiga ich-ichidan xohishi yo‘qligini bildirish bilan bir qatorda, bu frazeologizmda salbiy baho semasini kuzatamiz: *Negadir Qo‘qonga borishga oyog‘im tortmas edi* (“Ikki eshik orasi” 433-bet).

⁴⁶ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent, 2006. 436-bet.

Ba'zi frazeologik birliklar esa baho semasiga ko'ra betaraf bo'lishi ham mumkin: *Tamom, Ismoil melisaga xabar qilaman, hoziroq oyog'ini yerga tegizmay rayonga olib ketadi* ("Ikki eshik orasi" 272-bet). *Birovni bir ko'tar-ko'tar qilsak, oyog'ini yerga tegizmay qo'yamiz* ("Nur borki, soya bor" 195-bet).

Oyoqqa turg'azmoq iborasi "bemor insonni davolamoq" ma'nosi bilan voqelikni nomlasa, baho semasiga ko'ra ijobiy hisoblanadi: *Shukur, mana, oyoqqa turib ketibsiz-ku* ("Nur borki, soya bor" 255-bet).

Quyida beriladigan misollarda frazeologik birliklarning salbiy baho semasini berilayotganligini bilishimiz qiyin emas. Bunda oddiy so'zdan ko'ra ibora orqali ma'no ancha kuchaytirilib, bu gaplarning ekspressivligi yanada oshgan:

1. *Shuni vrach qilguncha oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurdi-ku "ayachasi"*.

2. *Lekin bu qiz, mana shu allaqanday "qora chigirtka" o'zining yuziga oyoq qo'yganini esladi-yu, tag'in g'ashi keldi* (58-bet).

3. *U o'zining muqaddas tuyg'usini hech kimga, hatto Faridaning o'ziga ham oyoq osti qildirishni xohlamasdi* (69-bet).

4. *Nima, endi meniyam oyog'imdan tortmoqchimisiz* (81-bet.)

5. *Birovni bir ko'tar-ko'tar qilsak, oyog'ini yerga tegizmay qo'yamiz* (195-bet).

6. *Bugun Sherzod o'zidan-o'zi oyoq ostidan chiqib qolishini qayoqdan bilibdi* (267-bet).

Somatik frazeologizmlar orasidagi "oyoq" leksemali frazeologizmlar ham boshqa iboralar kabi fikrni ta'sirchan ifodalashda, bu fikrning salbiy yoki ijobiy ma'no ottenkalarini kuchaytirishda, harakat-holatning qay tarzda bajarilishini yorqin ifodalashda alohida ahamiyatga ega.

Bob yuzasidan xulosalar

1. Frazeologizm tarkibida frazeologik ma'no hosil qilish funksiyasini bajaradigan komponent shu frazeologizmning mazmuniy markazi sanaladi. Mazmuniy markaz rolini, asosan, mustaqil so'zlar bajarib keladi. Bunday markaz

barcha frazeologizmlar uchun xos bo'lib, u erkin qo'llangan so'z bilan mos kelishi bilan belgilanadi. Demak, frazeologizmlarda frazeologik va mazmuniy markazlar o'zaro bog'liq bo'lib, ular frazeologizmning bir butunligini ta'minlovchi hodisalar hisoblanar ekan.

2.Somatik frazema har bir millat tilida alohida o'rin tutadigan xazina va til jozibasini namoyon etadigan eng muhim qadriyatlardan biri sanaladi. Ularda xalq turmush tarzi, ma'naviy va moddiy faoliyati, ruhiy madaniyati va e'tiqodi, tarixi va asriy tajribasi xuddi ko'zgudek aks etadi. Unda lisoniy ma'rifat qadimiy ildizlar – so'z, tushuncha, shakl va konstruksiyalarga qorishib ketadi.

3.O'zbek tilida inson tana a'zolari bilan bog'liq frazeologizmlar juda ko'plab uchraydi va bu frazeologizmlar badiiy asarlarda namoyon bo'ladi. Ba'zan bu somatik frazeologizmlar qatori yangidan-yangi ma'no qirralari bilan boyiydi.

4. Adib asarlarida bosh so'zi vositsida shakllangan frazeologizmlar boshqa shunday birliklar kabi ma'noni kuchaytirish, so'zlovchi fikrini tinglovchiga bo'rttirib ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

5.Somatik frazeologizmlar orasidagi oyoq leksemali frazeologizmlar ham boshqa iboralar kabi fikrni ta'sirchan ifodalashda, bu fikrning salbiy yoki ijobiy ma'no ottenkalarini kuchaytirishda, harakat-holatning qay tarzda bajarilishini yorqin ifodalashda alohida ahamiyatga ega.

UMUMIY XULOSA

1. Frazeologik ibora zamiridagi obrazni konkretlashtirish ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi asarlarida ba'zi frazeologizmlarning qayta – qayta ishlatilish holatlari kuzatilsa ham, ammo ularning vazifasi jarayonni umuman boshqacha yoritish, ma'no ko'lamini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

2. Yozuvchi qalamiga oid asarlarda ba'zi iboralar sinonimlari bilan almashtirilgan, ba'zan esa tarkibidagi ayrim so'zlarning tushirib, qisqartirilib ham qo'llanishlari holati uchraydi. Bu holat frazeologizmlarning ma'nosini umumlashtirish, abstraktlashtirish, kengaytirish uchun xizmat qiladi. O'.Hoshimov qahramonlarning bir – biriga bo'lgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi so'zlarning ma'nosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan.

3. Frazeologizmlarning variantlanishi natijasida ma'no qirralarida ma'lum o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar ma'noning kuchayishi, bo'yoqdorlikning oshishini ta'minlaydi.

4. Yozuvchi o'z asarlarida frazeologik birliklardan mavhum hodisalarni aniq qilib tasvirlashda, qahramonlarining ichki dunyosini, psixik holatini so'z bilan ko'rsatib berishda mohirlik bilan foydalanadi .

5. Shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy belgi asosida ma'lum umumiy sema orqali birlashgan frazeologizmlar ham adib asarlarida katta ahamiyatga ega. Bu frazeologizmlarni ijtimoiy hamda iqtisodiy holat asosidagi guruhlariga ajratish mumkin.

6. Frazeologizmlar orqali harakat-holatning ifodalanishi o'quvchi yoki eshituvchiga oddiy so'zlardan ko'ra anchayin kuchli ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida bu harakat-holatni yorqinroq gavdalantiradi. Shaxs harakat-holatini bildiruvchi frazeologizmlar ruhiy holatni, jismoniy holatni, aqliy, nutqiy holatlarni ko'rsatib keladi.

7. Somatik frazeologizmlar deganda, faqat inson tana a'zolar nomlari ishtirokidagi frazemalarni emas, aksincha hayvon tana a'zolarini ifodalovchi so'zlar qatnashgan frazeologik birliklarni ham tushunishimiz mumkin ekan.

8. Frazeologizmlar ham dastlab erkin birikma bo'lib, vaqtlar o'tiishi bilan nutqqa tayyor holda olib kiriladigan turg'un birikmaga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И. Ёшларимиз – халқимизнинг ишончи ва таянчи.
–Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 54.
2. Mirziyoyev Sh. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” ma’ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. 47-son, 2016-yil 8-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. 2017-yil 7-iyul Namangan nutqidan.
4. Abdullayev D. Ayrim somatik frazemalar // Muloqot. 1997-yil 5-son.
5. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.
–Тошкент:Ўқитувчи, 1985.
6. Ҳақимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипни фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги. Филол.ф.номз...дисс. –Тошкент, 1993.
7. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш. Филол.ф.доктр...ав.реф. – Тошкент, 1999.
8. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976.
9. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 1997.
10. Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986-йил 5-сон.
11. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
12. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Ikkinchi kitob.–Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
13. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Samarqand, 2007.
14. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш Масалалари. Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999.
15. Нурмонов А. Тилшунослик ва табиий фанлар. –Тошкент, 2001.

16. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши //Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2001. –№4.
17. Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. –Андижон, 2007..
18. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш.,Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
19. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970..
20. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. –Тошкент: Фан, 1964.
21. Раҳматуллаев Ш. Феъл фразеологик бирликларда мавжудлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1963-йил 4-сон.
22. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
23. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1966.
24. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
25. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик). Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1966.
26. Рафиев А. Иборалар нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
27. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.
28. Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик луғат. – Тошкент: 1989.
29. Ғуломов А., Асқарова М., Ҳозирги ўзбек адабий тили . –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

30. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дис. автореф. – Тошкент, 1993.

31. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. –Самарқанд, 2007.

32. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.ф.доктр...ав.реф. – Тошкент, 1993..

33. Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

34.www.arxiv.uz.

35.www.kitobim.uz.

36.www.ziyo.uz.